

**Assalomu alaykum Hurmatli kitobxon  
Ushbu kitobning pdf shaklini kitobni sotib olishga  
imkon bo'limgan kitobxonlarimiz uchun chiqardik.  
Umid qilamizki  
In shaa Alloh manfaatli bo'ladi.**

*Ushbu kitobdan hech qanday moddiy manfaat ko'zda tutilmagan) Hurmat ila @Khanifa\_Blog kanali!*

SONGUL UNSAL

MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY  
OLGAN KITOBLAR

# Kaktuslar ham Gullaydi

*Ishon menga: hayot senga kaktuslarning tikanlarini emas,  
rango-rang ochulgan gullarini ko'rsatadi.*



SONGUL UNSAL

# Kaktuslar ham Gullaydi



"ZUKKO KITOBXON"  
TOSHKENT - 2022

"Zukko kitobxon" nashriyoti uchun xizmat turkyaning "Olimpos" nashriyoti bilan "Akadem Telif Hakari va Tercüme" agentligi vestitachiligidagi 2022-yil 3-yazuvarda tuzilgan shartnomaga asosida chop etdi.

Musalliqlik haqiqagini karmat qiling!

Agar kitobning oldi masrasusini qalabakilashtrishidan himoyalovich vestita gologramma bo'lmasa, demak, bu kitob qalbati.

Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilishingizni istmas qilamiz! Buning uchun sizdan beshoya minnatdor bolamiz va sizga kitob sovg'a qilamiz.

UO'R: 821.512.161-3

KBK: 84(5Turk)

U - 53

SONGUL UNSAL "Kaktuslar ham galleydi" / turk tilidan Ulug'bek JANGCHIDDINOV va Risolat IBRAGIMOVA tarjimasi / "Millionish insonlar qilibdan joy olgan kisoblari" turkumi - T.: "ZUKKO KITOBXON", 2022. - 160 bet.

Bu foniy dunyodagi ba'zi odamlar menha choh qazishgan bo'lsa-da, o'sha chohdan o'zgarib chiqdum - yanada kuchliroq bo'ldim!

Bu yo'llarda bir qancha vaqt o'zimni yo'qotib, hech narsani his qilmay urdim. Lekin o'rgandim: inson o'zi yurgan yo'llarga gullar ekiб olg'a intilishi kerak ekan. Agar yarim yolda qolsa-yu, orqaga qaytdigan bo'lsa, o'sha o'llar gullar bilan bezatilgan bo'lishi kerak ekan.

Hattoki kaktuslar ham gullashi mumkin bolgan bu dunyodagi ba'zi bir familarning qalbi allaqachon so'lib, qurib qo'igan.

"Gam-alam, tashvishlar ustma-ust kelib, chiday olmaydigan holga tushib angiz ham, taslim bo'lmanq! Ana shundagina taqdiringiz o'zgaradi!"

*Mavleno (Jaloliddin Rumiy)*

978-9943-8021-8-6

SONGUL UNSAL

*Kaktuslar ham  
Gullaydi*

© Songul Unsal.

© "Olimpos" yayinlari & Akadem Telif Hakari va Tercüme" jansi.



Qalbingiz g'amga botgani tufayli: "Ushbu tuyg'u doimo qalbimning bir chetida saqlanib qoladi", - deya ich-ichingizdan his qiliyapsiz. "Unuting", "Baxtli bo'ling", "Otib ketadi" kabi gaplarni eshitishdan charchagandirsiz, balki. Shu sababli sizga: "Unuting". - demayman, ammo hayotiningizni ham davom ettirir.

Ko'zingizga zulmat kabi ko'rinyotgan o'z hayotiningizga o'zingizdan boshqa hech kim yoruglik baxsh eta olmaydi.

Bularni o'ylar ekansiz, qalbingizda borgan sari alanganayotgan g'am-alamlar yong'iniga to'xtashni buyuring.

Bilaman: har kimning dardi o'zi uchun ortiqchalik, ko'plik qiladi.

Lekin shuni ham unutmang: bunday g'am-tashvishlarni boshidan kechirgan yagona inson siz emassiz. Xuddi siz kabi azob-u alamlar tufayli tunlarini bedor o'tkazgan qanchadan qancha insonlar bor...

O'zingizni xo'rlangandek his qilmang: aldangan, tark etilgan, yarim yo'lida tashlab ketilgan yoki sevilmagan qanchadan qancha insonlar bor.

O'zingiz ham sizni sevgan har bir insonni sevmagansiz-ku. Sevولmasdingiz ham.

Yagona farq shundaki: siz o'zingiz sevmagan insonlarga umid bermadingiz. Bu sizning boshqalardan ustun tomoningiz, bu ustunligingiz bilan ovunsangiz arziyi.

Sizni umidvor qilib, lekin yarim yo'lida tashlab ketgan insonlarning hayotiningizga qayta aralashishiga izn bermang.

Siz xohlagancha ushbu g'am-alamlar haqida o'y surishin-giz mumkin, ammo o'layverganingiz sari qalbingizni yanada yoqaverasiz.



Yuragimizda qanchalab alamlar yong'ini bor, barchasi  
Allohga omonat!

Bilaman: boshqa bir insonga o'z dardingizni aytib bo'lmaydi,  
anglatib bo'lmaydi. Bilaman: hech bir inson biron-bir g'am-alam-  
ni o'z boshidan kechirmagunicha angolmaydi.

Ammo ba'zida o'zimni ottiz qavatlari binodan qulasam-da, hat-  
toki burnim ham qonamagan, ammo ruhim parcha-parcha bo'lib  
ketgandek his qilaman.

His-tuyg'ularning rangi yo'q, hajmi yo'q, lekin, shunga qara-  
may, qalbimiz ular bilan to'lib-toshgan.

Ammo inson o'zining eng buyuk imkonini eng chorasiz  
daqiqalarida topadi.

Ruhimiz yongan sari kelajagimiz yorqin bo'lar ekan.

Doimo eski davrlarni sog'inaman.  
U davrlarda yashash zavqi naqadar ajoyib edi-ya... G'am-alam-  
lar, ko'ngilsizliklardan yiroq edi... Huzur-halovat, samimiyat  
hamroh edi.

Avvalo, sabr bor edi...

Sevgan inson uchun sabr qilinardi...

Biron joyga ketgan insonining qaytishi ham sabr bilan kuti-  
lardi...

Hattoki ilgarilarli biron bir q'shiqning naqarotining radioda  
berilishiga umid qilib, sabr bilan kutilardi...

Hozirgi kunlarda esa na kimnidir sabr bilan kutganimizga  
ishonchimiz komil va na kimdir tomonidan kutganimizga...

Hattoki sadoqat qanday fazilat ekanligini unutib qo'yidik.

Sevgi o'z o'rnnini xiyonatga tashlab ketganidan buyon  
barcha zulmat-u qorong'ilik ichida qolib ketdi, qalbimizda-  
gi g'am-alamlar yong'inining sababi ham asli shu. Yaxshi in-  
sonlarni g'am-alamlar olovida yoqib, o'zlarining qop-qora,  
kir bosgan qalblari va dunyolariga yorug'lik bag'ishlamoqchi  
bo'lishdi...

O'ylaymanki, hayot kutishingizga arziydigan eng pok  
sevgini sizga taqdim etadi.

Nims uchun sizni bor kuchi bilan cho'ktirishiga intileyotgan ummonlarning tubida suzib yuribsiz? O'z qadringizni bishingiz, o'zingizga munosib baho berishingiz uchun yana qancha inson tomonidan qadsiz his qilinishingiz kerak?

O'zingizga zarracha loyiq bo'lмаган insonlarga o'zingizning aslida qanday inson ekanligingizni isbotlash uchun tuyg'ulari ngizni yoqmang, ularni behuda surf qilmang. Sizdan ilmos qilib so'rayman: o'zingizni seving.

Umuman olganda, chiga olmaydigan ko'ngilsiz, noxush bir vaziyatga tushib qolsak, ushbu noxush vaziyat doimiy davom etdiganday tuyuladi.

Agar hayotni bir sinov sifatida ko'radian bol'sangiz, va bu sinnova yuksak sabr va matonat ko'rsatsangiz, ushbu sinov, albatta, o'tib ketadi.

Ammo bularning o'tib ketishi uchun tashlashining kerak bo'lgan eng kerakli qadam – ushbu sinovning o'tib ketishiga qalban ishonishdir.

Yillar davomida qarshilik ko'rsatsangiz-da, shunga qaramay, noxush, ko'ngilsiz sinovlarning uzoq davri mobaynidagi davom etishi ularning o'tib ketishiga qalban ishonmaganligingiz tufayli sodir bo'ladi.

Azoblarining qabul qiling...

Qayg'ularining his qiling...

Qalbingizdagi ko'ngilsizliklarni ham qabul qiling va ularni yengish uchun yeng shimarling.

Kelajak hayotingizda yuz berishi mumkin bo'lgan, amma ayni vaqtida xayol ham qila olmaydigan vaziyatiham ko'p ham o'ylayvermang... Insonlarni balo-qazolardan himoya qilishi haqidagi ham ko'p siqilavermang...

Ha, afsuski, qilib bo'linigan xatolar bor, hazrn qilish juda ham qiyin bo'lgan narsalarni boshdan kechirgan bo'lishingiz mumkin, amma unutmang: siz hali ham nafas olyapsiz.

Qiyin bo'lishi bilaman, amma sizga ushbu azoblarni bergan insonlarni afv etib, keyingi qadamni tashlang.

Sizga g'ani alam chektirgan insonlar hattoki vijdoni azoblanmay, kulgancha o'z hayotini davom ettirar ekan, hayotining ularning yana aralashishlariga izn berasizmi yoki yangi bir yollash kashfi etib, shu yolda shaxdam qadamlar bilan oldinga intilasizmi? O'zingiz qaror qiling: bunga kuch-quvvatingiz yetadi.

Nima ham deya olaman: men yolg'izlik saltanatining qirolichasiman. Oxirgi paytlarda shuni tushundimki, insonlar yolg'izlikdan juda ham qo'rqishar ekan, ammo aslida yolg'izlik sizga o'zligingizni kashf etishingizga yordam beradi.

Yolg'iz qolmaslik uchun hayotingizga kirib kelishni istagan har kimsaga izn beraversangiz, ichingizdagи go'zalliklar o'zingizga ham sezdirmasdan, asta-sekin tugab, yemirilib yo'qolib ketaveradi. Chunki hayotingizga kirib kelgan har bir yangi inson sizdan o'zi bilan nimalarnidir olib ketadi.

Hayotingizga munosib bo'lgan inson o'z vaqtida keladi va sizni topadi.



Yashil rangda huzur, halovat bor, ko'k rangda esa boqiylik...  
Har kimning ichida biroz yashil va biroz ko'k rang bor.  
Shuning uchun baxtli bo'lishni istasangiz, avvalo, o'z qalbingizga boqing.

Qalbingizdagи bahorlar chiriganmi? Moviy dengizlaringiz qurib qolibdimi? Beg'ubor osmoningizni zulmat qoplaganmi?

Avvalo, ushbu muammolarингizni hal qiling.

O'zingizni seving, o'zingizni qadrlang, o'zingiz uchun nimalardir qiling.

Muhim qaror qabul qilishingizdan avval sevgan insonlaringizning bu boradagi fikrlariga, albatta, e'tibor bering, ammo so'nggi qarorni o'zingiz qabul qiling.

Duo qiling...

Kitob o'qing...

Qalbingizdagи yangi filmlarni, nozik joylarni kashf qiling...

Tabassum qiling...

Evaziga hech nima istamasdan yaxshiliklar qiling...


Biron kimsaning o'zingiz haqingizda qaror chiqarishiga aslo izn bermang!

Barchasi o'zingiz istaganingizdek bo'lsin!

*Hayotning eng go'zal tomoni nimaligini  
bilasizmi? Har bir narsaning ilohiyadolat ustiga  
qurilganligi. Qilingan hech bir amal yashirin  
qolmaydi. Qilingan yaxshiliklar evaziga yaxshilik  
qaytganidek qilingan barcha yomonliklar ham  
qachondir o'z "meva"sin beradi – insonni oyog'idan  
chaladi. Aslo intiqom olmang.*

*intiqom olishni Allohga topshiring.*

*Intiqomni Allohga topshirishning rohati  
boshqacha. Shunday qilsangiz, barchasi go'zal  
bo'lishiga ishonasiz va bilasiz.*



Ayni davringizni va makoningizni zavq-u shavqqa to'ldiring.  
Sabr qiling.

Qalbingizda turgan joyingizdan ketish emas, aksincha qolish  
fikri joy olsin.

Bittagina xato tufayli sizga qilingan o'nlab yaxshiliklarni unu-  
tadigan darajada nonko'r bo'lmgan.

Tabassum qiling...

Gul xarid qiling....

Yaqinlaringizga sovg'a ulashing...

Uzr so'rang...

Boshqalarni ranjitmang...

O'zingiz xafa bo'la turib, boshqa bir insonni ham xafa qil-  
mang.

Chunki ranjigan, iztirob chekayotgan boshqa bir qalbni bosh-  
qalarga nisbatan siz ko'proq, yaxshiroq anglastingiz lozim.

Hayotingiz uchun kurashar ekansiz, o'z foydangiz uchun, o'z  
maqsadingizga erishish yo'lida boshqalarga xushomadgo'ylik qil-  
mang.

Asliyatingiz qanday bo'lsa, shundayligingizcha qoling.

**Ruhan iztirob chekkaningizda: "Ezildim. Aynan mana shu  
joyim iztirob chekyapti", – deb qalbingizga ishora qiling.**

Qarshingizdagi inson, balki, buni ko'rmas, ammo his qiladi.

Qalbingizga juda ham e'tiborli bo'ling. Shunday e'tiborli  
bo'lingki, qalbingiz kirlanmasin.

Siz insonlarning o'zlarini emas, balki ularning o'zingiz uchun foydali xislatlarini sevasiz.

Ular sizni qanchalik baxtli qila oladi?

Ular siz uchun nimalarga qodir?

Ular sizdan hech qachon ranjimasligi kerak, ammo siz ularni ranjitganingizda xafa bo'lmasliklari kerak, to'g'rimi?

Siz tanqid qilishingiz mumkin, ammo u aslo sizni tanqid qilmasligi kerak, to'g'rimi?

Demak, siz insonlarni emas, o'z ichingizdagи xudbinligingizni sevasiz.

Shu tufayli ham o'zingizga foydasi tegmaydigan, "ortiqcha" insonlarni atrofingizda ushlab o'tirmaysiz. Ulardan xabar kelmay qo'ysa, izlamaysiz. Ularning hol-ahvoli bilan qiziqmaysiz. Bir-ron-bir tashvishi bo'lsa, tashvishi haqida hatto o'ylamaysiz ham.

Shuni bilmaysizki, u insonda ham Allohdan qo'rqa digan qalb va bitishi kutilayotgan yaralar bor.

Insonni inson ekanligi uchun sevish kerak. O'sha sevgan insoningizga munosib va loyiq bo'lishingiz kerak.

Sezyapsizmi-yo'qmi - bilmayman-u, ammo har narsani juda tez tugatyapmiz.

**Bir lahzada samimiyo bo'lamiz, bir lahzada baxtdan osmon-ga uchgan oyoqlarimiz yerga tegadi.**

Qilingan barcha go'zalliklarni arzimas sanab, lekin bitta xatordan g'azablanamiz.

Ba'zan nimalarningdir o'z yo'lida to'g'ri ketmayotganini his qilamiz, ammo buni isbotlay olmaganimiz uchun sabr qilamiz. So'ngra esa ushbu isbot etolmagan kechinmaning qalbimizga san-chilgan pichog'i bilan o'z yo'limizda davom etamiz.

Qalbingiz, haqiqatan ham, qalbi bor insonga loyiq bo'lsin, unga intilsin.

U sizni o'z manfaatlari uchun emas, qalbingiz uchun sevsin.



Men shundayman!

Ba'zida boshqa insonlarga nisbatan juda ham ko'p iztirob chekaman.

Yangi bir joyni ko'rsam, quvonaman...

Yangi bir qo'shiq eshitsam, qalbim huzurlanadi...

Yoki yangi bir kiyim xarid qilsam, o'zimni qayta tug'ilganday baxtiyor his etaman.

Sumkamda ko'plab umidlarim bor, charchaganimda eng birinchi navbatda uni ochaman.

Meni oz, juda ham kichik bo'lgan narsalar ham baxtiyor qiladi. Ishtaha bilan tanovul qilgan taomimdan yana bir likopcha olib kelinsa ham birinchisi kabi xursand qilmaydi, ikkinchi likopchadagi taom u qadar lazzatlidek tuyulmaydi.

Kamdan kam insonlarni sevaman. Kamdan kam insonlarga ishonaman. Ba'zan esa o'zimdan boshqa hech kimga ishonmayman.

Ba'zan xayolimdan o'tgan fikrlar besh yuz kilometr tezlikda bir-biri bilan to'qnashib ketishini to'xtata olmayman.

Keksayyapmanmi yoki asta-sekin aqlimni yo'qotyapmanmi - bilolmayman.

Ammo qalbimda hali-hanuz umid bilan gul parvarish qilyapman.

Umid doimo bor. Ishq doimo mavjud bo'ladi.

Shunday bo'lishi ham kerak, axir, bu dunyodagi boshqa tashvishlar azob chekishga arzimaydi-da.



Qanchalik salbiy fikrlasangiz, o'zingizga salbiy narsalarni shunchalik jalg qilasiz.

Qadr ko'rmagan yerda o'zingizni majburlab ortiqcha turib qolmang.

Sizni qanchalik qadrlashlariga qarab, boshqalarni ham shunday qadrlang - shunday yo'l tuting.

Minnatdor bo'lmaydigan insonlar uchun ko'p ham tashvish chekmang, g'am yemang. Hayot bu qadar uzun emas. Barchani birdek baxtli qilolmaysiz.

Sizga nisbatan qilingan o'nlab nohaqliklarga qaramay, ularni o'z hayotingizdan chiqarib yubormaganingizning o'zi go'zal bir mo'jiza, ular buni his etishlari lozim.

Kimlardir sizdan qilgan yaxshiliklaringiz uchun minnatdor bo'lmay, aksincha qila olmagan ishingiz uchun norozi bo'lsa, ularni hayotingizdan chiqarib yuboring. Agarda ularni hayotingizdan chiqarolmayotgan bo'lsangiz, ular uchun shu kungacha amalga oshirib kelayotgan yaxshiliklaringizni to'xtatingki, sizning qadringizni bilishsin.

Insonlar sizni o'zgartirishlariga yo'l qo'y mang.  
Boshqasi sizni sevishi uchun o'zingiz  
yoqtirmaydigan ishlarni qilmang.  
Sochingizni o'zgartirmang...  
Kulishingizni o'zgartirmang...  
Eng muhimi, fikrlaringizni o'zgartirmang.  
Siz aynan o'zligingizcha go'zalsiz!  
Sizni sevishni istagan inson kamchiliklaringiz  
bilan birga sevsin.

Insonlar bu qadar pastkashlikka qachon ulgurishdi ekan?  
Insonlar qachondan beri o'zlarini, inson ekanliklarini unutib,  
o'z hirslari yo'lida boshqalarni qurban qiladigan bo'dilar?  
Shoirlardan biri: "Bir kun bir kishi: "Ey inson o'g'li", - desa,  
hech kim unga e'tibor ham qaratmaydigan davr kelishini aytgan  
ekan.  
Qo'rquamanki, barchasi yanada yomon tomonga o'zgarib bor-  
moqda.  
Eng birinchi navbatda, go'zalliklar, ezguliklar yo'qolib  
bormoqda.  
Oz narsaga qanoat qilish mumkin bo'lgan bir paytda atro-  
fimiz ochko'z insonlarga to'lib-toshmoqda.  
Hatto oz narsaga qanoat qiluvchi insonlar ham borgan sari  
qanoatdan yiroqlashyapti.  
Ammo barcha bir narsani unutib qo'ygan: biz o'tkinchi dun-  
yodamiz. Oqibati nimaligini bila turib, hirslaringizni bo'yningiz-  
ga bir tosh kabi bog'lab, o'zingizni asta-asta dengizning tubiga  
otayotganga o'xshaysiz..  
Unutilgan yana bir narsa bor: ichingizdag'i kibr ham, xudbin-  
lik ham, "men"ingiz ham bir kun kelib sizni tamom qiladi.  
Agar sizning qalbingiz ham shunday bo'lsa, aslo baxtli bir ni-  
hoyani kutmang.  
Nimani qoralasangiz, u yashaydi; aybini qidirganingiz sari  
oshkor bo'ladi; sharmanda qilishga urinsangiz, insoniyligingiz  
ham sharmanda bo'ladi.  
Sizga bir narsa aytaymi? Ba'zi insonlarni sevgi, ishq va  
**huzur-halovat ham tuzata olmaydi.**  
Yomonlik ba'zan yuqumli bo'ladi.

Yomon insonlardan uzoq yuring.

Sizni xafa qiladigan va sizga iztirob chektiradigan har qanday narsadan chetlashing.


Sizga nomiga yaxshilik tilaydigandek, aslida esa baxtsiz bo'lishingizni ko'zlarini mushtoq bo'lib kutayotgan insonlar bor. Ularning aslida kim ekanliklarini anglaganingizda shuni tu-shunib yetasizki, bunday insonlarni ajratib olish uchun ikki ko'z kamlik qilar ekan.

His-tuyg'ularning ahamiyati aynan shu nuqtada bilinadi.

Nimani his qilayotgan bo'lsangiz, o'sha narsa amalga oshadi.

Isbot eta olmayotgan, ammo sodir bo'lishi shak-shubhasiz bo'lgan har narsa birma-bir yuzaga chiqa boshlaydi.

**O'zingizni yanada tushkun ahvolga tushirishni istamsangiz, yuragi balchiqqa to'la insonlarning derazalari tagiga gul qo'y mang. Ularning derazasi har qanday narsani balchiq kabi ko'rsatadi.**



Bilaman: ba'zi narsalarga to'ymayapsiz.

Tanqid qilishga, birov larning qalbini jarohatlashga, tanimagan insonlaringiz haqida biron-bir xulosaga kelishdan to'ymayapsiz.

O'rnida bo'lishni chin qalbingiz bilan istagan insonlaringizga lagabardorlik qilishdan to'ymayapsiz.

Tanqid qilishning nima ekanligini to'g'ri anglamay turib, haqorat qilib: "Ha-a, tanqidni qabul qilolmayapsan, qachon tanqidlarni to'g'ri qabul qilasan?" - deyapsiz.

Haqorat qachondan beri tanqid deb ataladigan bo'lib qoldi?

Ular sizning g'amgin tuyg'ularingizni bartaraf etadigan insonlar emaslar. Shu tufayli ular qilgan har narsani tanqid qilishning o'rniga siz ham bir nimalar qilingki, biz ham sizni olqishlaylik.

O'zingizni baxtsiz his qilyapsiz, shuning uchun boshqalarning baxtli bo'lishini istamayapsiz.

Qilayotgan ishingiz boshqalarning qalbini ranjitishdan boshqa narsaga yaramayapti. Siz shu harakatlarni kimga nisbatan qilayotgan bo'lsangiz ham, u insonning bularga e'tibor bermayotganligini o'playapsiz, ammo ishoning: sizning bunday harakatlaringizdan ular juda iztirob chekyapti.

Nachora, Alloh qalbingizga ezgulik bersin...



Qabul qilmoq go'zaldir...

Dastlab, biror nima haqida eshitishni ham  
xohlamasangiz-da, vaqt o'tishi bilan ushbu  
narsalarga ko'nikasiz.

Yoki hali ham tirikligingizni anglab:

"Ha, men buni boshimdan kechirishim kerak edi va  
shunday ham bo'ldi", – deb ko'nikasiz yoki  
xayollaringizdagi qabul qilib bo'lmaydigan  
savollar bilan kurashasiz.

Biron narsadan voz kechayotganimni his qilsam, o'zimni  
o'zim yangilayman. Tugagan nuqtamda yanada yangi qirralarim-  
ni kashf qilaman va o'sha onda shuni angraymanki, inson yiqilma-  
sa, yuksalmas ekan.

Ma'lum bir nuqtada fikrlarim yuksaladi. O'sha lahzada  
azoblari yuksala olmasligini bilaman. Demak, insonni boshidan  
kechirganlari pastga tortar ekan-da.

Ammo inson yuqorida qulab, chalqancha yotmasa, aslo os-  
monni ko'ra olmas ekan.

O'zimda yaxshi taassurot qoldirmaydigan insonlarning bar-  
chasini rad qilaman.

Hasad bilan qaraydigan, yiqilishimni kutadigan, "yordam"  
nomi ostida "yaxshilik"lar qiladigan, ya'ni menga azob bergen in-  
sonlarning birortasini ham unutmadi.

Har narsa, albatta, bir kun aytildi, ammo har doim va har  
yerda ham aytilavermaydi.

Men biron-bir masalada qo'limdan kelganicha chuqur o'ylab,  
shundan keyingina harakat qilaman. Shu kunga qadar boshqa-  
larga zarar beradigan inson bo'lmadim, ammo, shunga qaramay,  
vaqtি kelganida barchasidan birma-bir uzoqlashdim.



Chunki inson kim uchundir qilingan yaxshiligiga xuddi shunday javob qaytarilishini kutmasa ham, shu yaxshiligining qadrlanishini istaydi.

**Qadrimni bilmaydigan insonlarning yonida qolish uchun o'zimni majburlamadim.** Shunday bir oliy maqom borki, "Balki, yaxshilikni singdirarman", – deb o'ylab ushbu maqomga chiqishga harakat qilaman va yonimdagи insonning qo'lidan tutib, majburlab o'zim bilan o'sha maqomga chiqishga olib chiqishga intilaman. Men harakat qilsam-u, o'zi buni xohlamasa, uni o'sha yerda qoldirib ketaman.

Ichki dunyosini chirkinlik qamrab olgan insonga yaxshilikni singdirolmayman.

Ular bir munozarada vaqtida qilgan ishlari bilan ovunib yurishadi.

Men bu davr bilan va bu davrning odamlari bilan kelisha olmayman.

Ular bilan ovora bo'lolmayman.

Meni ham tushunishlari kerak.

O'zimning kimligimni tushunmasdan ularni tushuna olmayman...

Ammo insonlar johil bo'lsa-da, ularga nisbatan ishonchimni yo'qotmayman. Bilaman: eng ajoyib kunlar kurashib, sabr qilib kutganlar uchundir. Ajoyib-u, samimiyl insonlar ha-li-hanuz bor. Dunyo kichik, ALLOH ESA BUYUK!

Hech kim mahzun bo'lmasligi kerak...

Barchaga "xo'p" deyishim kerak...

Yolg'iz o'zim qolishim kerak...

Agar mana shunday fikrlashda davom etaversangiz, oxir-oqibat, izziroblar ichida qolasiz.

Endi sevilish uchun kichik bir yorug'luk kutmang, chunki sevlayotgan bo'lsangiz, shuning o'zi yengib bo'lmaydigan darajada bir yorug'luk sochadi.

Noxush kechinmalarga nisbatan qayg'ularingizni biroz o'zgartiring.

Devorlarni ustingizga, aslida, u yiqitgan, ammo siz: "Ustidandan bir g'ishtni olib tashladi", – deya undan minnatdor bo'lgansiz.

"Mayli bu ajoyib, ammo qarang: bu devorlarni u yiqdi-ku", – deyapman.

"Ammo, bir g'ishtni ustidandan olib tashladi, meni qadrlamasa, bunday qilmagan bo'lardi", – deyishingiz mumkin.

"Sizni yaxshi ko'rganida devorlarni ustingizga yiqitmagan bo'lar edi", – deyapman.

Umidsizlik tuzog'iga tushmang. Har qanday vaziyatda ham umid chirog'i borligini yodingizdan chiqarmang. Alloh taolo Baqara surasining 156-oyatida shunday marhamat qilgan: "(Ular) o'zlariga musibat yetganda: "Albatta, biz Allohnikimiz va, albatta, biz unga qaytuvchimiz", - deganlardir"<sup>1</sup>

Bundan-da go'zalroq mujda bo'lishi mumkinmi? Men ushbu oyatni eslagan onimda Bursada azon ovozi yuksaldi. Shunda o'zimga o'zim: "Buni insonlar bilan bo'lishmog'im shartki, insonlar ichidagi nafrat oloviga suv sepilsin", - dedim.

"Doimo barchasi shunday davom etadi, men doimo shunday mahzun bo'lib qolaman", - deb o'ylamang.

Istagan narsangiz amalga oshmayotgan bo'lsa, demak, sizni oldinda undan ham xayrliroq bo'lgan boshqa biri kutmoqda.

Shunday bir gap bor: "Ro'yobga chiqqan istagingizdan bir, ro'yobga chiqmaganidan ming yaxshilik izlang".

O'tmish bo'lgan barcha narsa o'tmishda qoldi. Ortingizda qolgan insonlar uchun kelajagingizni barbod qilmang. Hayotiy quvvatingiz tugab qolmasin.

Menga ishoning: tabassum qilmoq va yaxshiliklardan umid qilmoq lazzatliroq.

Endi qo'lingizdan kelmaydigan narsalarga, o'zgartirish o'z qo'lingizda bo'lмаган kechinmalarga nisbatan o'zingizni aybdor his qilmang. Bo'lib o'tgan hech narsaga afsuslanmang. Siz qo'lingizdan kelgan ishni qildingizmi? Vijdoningiz tozami?

Harakat qildingiz, yelib-yugurdingiz - bo'lmadimi?

"Ahvolim yaxshi, ammo, shu bilan birga, mahzunman", - deyotgan bo'lsangiz, yuqoridagi oyat sizni go'zalliklar kutayotganining mujdasidir.

<sup>1</sup> Qur'on oyatlarining ushbu kitobdag'i tarjimasi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohmatullohi alayhning "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi" kitobidan olindi.



Demakki, insonlar o'zgarmas ekan-da?..

Kimlardir buning noto'g'ri fikrligini va kimlardir noto'g'ri taxminligini aytishsa ham, ammo ba'zi ba'zi his-tuyg'ular bizni aldamaydi.

Ba'zida shunday holat bo'ladiki, to'g'ri ekanligiga amin bo'lgan o'z farazlaringiz bor-u, lekin isbotlay olmaysiz.

Bu davr: "Kurashsakkina, erishamiz; kurashsakkina, qadrimiz bilinadi", - deydigan davr emas.

Aksincha, kurashganingiz sari qarshi tomondagi inson o'zining sevilishiga yanada ko'proq amin bo'la boshlaydi.

Sevgingiz uni go'zallashtirish o'rniغا, aksincha yanada takabbur qilib qo'yadi.

Shunday hissiyot paydo bo'ladiki, sizga erishish uchun jonini berishga tayyor bo'lgan inson ketib, uning o'rnini tamoman boshqa inson egallayotganday bo'ladi. Shunda bilingki, siz ketgan insonning haqiqiy yuzini ko'rayotgan bo'lasiz.

Uni aslo-aslo birinchi marotaba tanigan paytingizzagidek tasavvur qilmang.

"Sevar edi, ammo nima uchun bunday bo'ldi? Sevar edi, ammo nima uchun meni tark etdi?" - deya afsuslanmang.

Chunki u hirsiga mag'lub bo'ldi. Chunki ishq bilan havasni yanglishtirdi. Havasni ishq deb o'yladi.

O'tmish emas, balki ayni paytdagi holatdan kelib chiqib qaror qabul qiling.

Bo'lmasa hozirgi vaziyatingizdan chiqolmaysiz.

Na kechasi bilan boloxonada o'tirib chiqishlarining va na kunduzgi parishon holingiz tugaydi...

Qorong'ilikda A'rofda turib qolasiz-u, sizga hech kim: "Seni bu holga keltirgan menman", - demaydi.



Shunchaki: "Juda o'zgarib ketibsan", – deyishadi.  
O'zgarganlar o'z xatolarini tushunishlarini va kundan kunga  
asabiylashib ketishlarini kutayotganingizda ular o'z hayotini o'yla-  
shadi.

Nega sizga nisbatanadolatsiz munosabatda bo'lishsa-da, ular  
uchun kurashishda davom etyapsiz?

Ham iztirob chekib, ham qo'lingizni yuragingiz ustiga qo'yib:  
"Qarang, bu yerim parchalandi", – deyapsiz.

Unday demang.

Sizning holatingizni tushunadigan inson sizni xafa qilarmidi?  
Nozik qalbingizni og'ritarmidi?

Sizni anglamaganlar uchun umringizni, vaqtingizni sarflash-  
da davom etasizmi yoki o'zingiz uchun yangi bir yo'l kashf etib:  
"Bismilloh", – deysizmi?

**Unutmang: Alloh yangidan boshlovchilarning yordamchi-  
sidir.**

Insonlarning bir-birlarini tark etib ketish xohishlari qayerdan  
paydo bo'lar ekan – hech bilolmayman.

Ayniqsa bir paytlar yarim yo'lda tashlab ketilganlar endilikda  
yarim yo'lda tashlab ketadigan bo'lib qolishgan.

Kimdandir sevgi kutganlar o'sha sevgini ko'rgach pastkash-  
lashib, manmanlashib qolmoqda.

"Ko'rmaganning ko'rgani qursin" degan bir hikmat bor, xud-  
di shu hikmatga muvofiq sevgisiga javoban sevilmay yurib, en-  
dilikda sevilish qanday bo'lishini ko'rgan insonlarning bir qismi  
nonko'r bo'lishga moyildir.

Chunki ushbu insonning o'tmishi kurashlarga, g'azab-u  
nafratlarga, xiyonatlarga to'la. Uning bunday sevgidan hayratla-  
nishi va bu tufayli o'zini yo'qotishi tabiiy holat.

Men bu davrning insonlaridan charchadim.

O'zimni insonlarga qanday ekanligimni anglatishga harakat  
qilib, aynan anglatgan narsam tufayli oramizda muammo paydo  
bo'lsa, ular bilan bir joyda qolish meni juda ham qattiq xafa qiladi.

Minbarga chiqib, soatlarcha har narsani tushuntirib bekor  
qilibsiz. Savol beribsiz, ammo undan hech qanday javob ololmabsiz.  
Chunki u sizni eshitmagan va tushunmagan.

Ustiga-ustak, zarra qadar nur tarata olmagan insonlarning  
o'zlarini quyosh kabi ko'rsatishlari g'alati.

Ichingizda barchasi to'lib-toshsa, endi hech narsani o'zgartira  
olmasligingizni tushunasiz.

Insonning hayotidagi bir lahza burilish nuqtasi bo'lib, aynan  
o'sha lahza uni kuchli qiladi.

Men o'sha nuqtaga kelmaslik uchun qo'limdan kelganicha  
harakat qildim, endilikda esa juda ham kuchliman.



Ortga qarab, bo'lib o'tgan voqealarni, tugagan narsalarni, hayotimdan ketganylarni tomosha qilyapman.

Hech kimga bog'lanib qolganim yo'q. "Hayotimdan ketgan insonning shundoq ham ko'z oldimda hurmati qolmagan", - deyapman.

Go'zal kunlar kelishini orzu qilyapman, xolos.

Bu hayotni barcha rangi bilan - ko'ki, oq, yashil, biroz qora rangi bilan - boricha sevaman.

**Insonlarni o'zgartirishga harakat qilmayman. Biroz sabr qilaman, tushuntiraman. Demoqchimanki, taslim bo'lischdan oldin kimlarga dir nimalarnidir doimo tushuntiraman.**

Barcha harakatlarim bekor ketgach, hayotlaridan hech narsa demay, sas-sadosiz chiqib ketaman.

Chunki shuni bilamanki, gul ichlari iflosliklarga to'la insonlarning qalbida gullamaydi.



**Hech kim hech kimni boricha qabul qilmaydi.**

**Ular o'zlarining siz sevgan odatlарини o'zgartirib,**

**tamoman boshqa ko'rinishga keltirib, oxirida sizga:**

**"Sen o'zgarding". - deyishadi.**

**Yo'q, bu unday emas, bunday bo'lishi mumkin ham emas.**

**Biron insonni qadrlamoq degani u insonni**

**boricha qabul qilmoq deganidir.**

**U insonning jamiyatga bema'ni ko'ringan,**

**e'tiqodga to'g'ri kelmaydigan**

**odatlari bo'lsa, ushbu odatlар majburlash**

**yo'li bilan emas, sevgi bilan o'zgartiriladi.**

Ba'zan kimningdir qilayotgan xatolariga ko'z yummasligimiz kerakki, uning qilgan xatolari shunchaki kechirilib ketilmasligi kerak.

Ularning bu qilig'idan g'azablanganimizni yuziga aytishimiz kerak. Ularning bizga qilgan ishlariga javob qaytarmaganimiz uchun o'zlarini haq deb bilishadi.

Barchasi yaxshi bo'lishi uchun: "Balki, bu safar yaxshi bo'lar", - deya, harakat qilsak, ularga qilgan yaxshiliklarimiz bo'g'zimizda ustara tig'i kabi qolib ketadi. Barchasi yaxshi bo'lishi mumkin edi, ammo bo'lmasdi.

Chunki eng boshidan ularning xatolariga ko'z yundik, indamadik: "Mayli, siz aytganday bo'lsin", - deb, bir vaqtlar bahshishni to'xtatgandik.

Bu safar o'zingiz uchun bosh ko'taring, qalbingiz iztirob chekkanini bildirsin.

Chunki sevish degani har qanday haqsizlik oldida jim turish degani emas, sevish degani qilingan o'nlab yomonlikka bo'yin egish degani emas.

Qo'ying, ular ham xayolingizdagji bir-biri bilan to'qnashayotgan "poyezd"lardan o'z nasibalarini olishsin, ezelidigan bo'lsa, ularning qalbi ham biroz ezilsin.



Hech kim voz kechib bo'lmaydigan inson emas. Bir insonga kechib bo'lmaydigan darajada qadrli inson ekanligini his et-tirgan oningizda u unutishi, voz kechishi mumkin bo'lgan ilk inson o'zingiz bo'lasiz.

Eshik ortida sizni qiyin kunlar kutayotgan bir vaqtda siz unga yana-da qattiqroq bog'lanib qolasiz.

U baxt sururini surayotgan bir paytda siz ko'z yoshlaringizni artish bilan mashg'ul bo'lasiz.

Bunday misollardan ko'plab keltirishim mumkin.

Xo'p, qachon baxtli bo'lish mumkin? Qarshingizdagji inson qachon qilmishlaridan afsuslanib sizning yoningizga qaytadi?

Avvalo, men sizning o'rningizda bo'lsam, uning yonimga qaytishi uchun harakat qilmayman. Hayotimga boqaman, o'z kuchimni sevganlarimga, meni qadrlaydigan insonlarga ajrataman.

Bo'lar ish bo'ldi va tugadi. U insonning hayotingizdagji roli tugadi.


Bosh rolda hali-hanuz o'zingizsiz.

Darhaqiqat, o'zingizni qadrlagan paytingizda, ya'ni u inson-dan voz kechgan oningiz eshicingiz taqillaydi.

Ichingizda tuyg'ularingiz shunday poymol bo'ladiki, derazasi yonida yo'lingizni poylagan inson eshikni ochishga ham erinadi.

Hayot go'zalliklarga to'la, iltimos buni ko'ring va his qiling.

Amalga oshmaydigan narsalarga intilib, bog'lanib qolar ekan-siz, amalga oshadigan hech bir narsa sizni o'zi topib kelmaydi. Shunday paytda: "Nima uchun barcha narsa faqat men bilan yuz beryapti?" - deysiz.



Ko'zimizga juda ham mukammal ko'rindigan ba'zi insonlar bor, ular boshqalar uchun tashqaridan qaraganda oddiy inson kabi ko'rinishadi.

Insonlarning ayblarini ko'rmaganga olayotganimiz tufayli o'zlarini aybsiz deb hisoblay boshlashadi.

So'ngra sekin-asta, kundan kunga o'sha bebahoinsonning o'miga yangidan boshqa bir inson keladi. O'zingiz juda ham yaxshi bilishingizga amin bo'lgan insoningizni ko'rib: "Hech taniy olmayapman", – deb qolasiz.

Kulishi, qarashi, ovozining jarangi – barchasi boshqachadek tuyuladi.

Qisqa qilib aytganda, shu taxlit tajriba orttirib borasiz.

Insonlarning aslida ko'ringani kabi emasligini anglaysiz.

Choy ichishini, piyolani ushlashini ham sevgan insoningiz qilayotgan ishlarni shu onda boshqalar ham qilayotganini ko'rasiz.

Chunki ba'zi insonlarning iflosliklari shunchalik ko'pki, ozgina vaqt o'tgach, ulardagi go'zalliklar ham ko'zingizga ko'rindiy qoladi.

BA'ZI INSONLARNI HAYOTINGIZDAN  
CHIQARIB YUBORISHINGIZ KERAK BO'LADI,  
YO'QSA ULAR SIZNI O'Z HAYOTLARIDAN  
CHIQARIB YUBORISHADI.  
QULOQQA BIROZ G'ALATI  
ESHITILISHI MUMKIN,  
AMMO BU - HAQIQAT.  
CHUNKI ULAR UCHUN  
YASHASHNI BOSHLAYMIZ,  
ULAR ISTAGAN JOYGA BORAMIZ,  
HATTO BIZNI RANJITISHLARIGA  
HAM IZN BERAMIZ.  
KECH BO'LMASIDAN UNDAY  
INSONLARNI QO'YIB YUBORING,  
HAYOTINGIZDAN CHIQIB KETISHSIN.



Insonlar bilan juda ham ko'p suhbatlashish tarafdori emas-man.

Faqatgina sizni tushunadigan insonlar bilan suhbatlashing, avvalo, shuni unutmang: dardlar, muammolar hammaga ham aytilavermaydi.

Hatto do'stingiz ekanligiga amin bo'lgan insoningiz ham dardingizni eshitib, ich-ichidan sevinmagani ma'lum emas-ku?

Insoniylik shu qadar buzildi...

Hamma hozirgi davr qoidalaridan shikoyatchi, o'tmishga intilish bor, hech kim bir-biriga ishonmaydi, shu bilan birga, hech kim o'zini o'zgartirishni ham istamaydi.

Agar hayot tartibining qaytadan tiklanishini istasak, avvalo, o'zimizni tuzatishim, o'zgartirishimiz lozim.

E'tiborga olmagan kichik-kichik yolg'onlaringiz sizni jarlikka qulatmasin.

Modomiki, har kim qalbiga ekkanini o'rар ekan, siz ham qalbingizni go'zal tutingki, Robbimiz qarshingizga go'zalliklarni chiqarsin.

Bundan tashqari, ilohiy adolatning o'zarmas qonuniyatiga hayron qolaman.

Qasddan qilingan hech bir narsani javobsiz qoldirmaydi.

Hayotingizdan chiqib ketgan johil insonlarning ortalaridan quvib, umringizni uvol qilganingizdan ko'ra, bu dunyoga nima maqsadda kelganingizni aniqlang va shu maqsadga muvofiq yashang.



*Ba'zi insonlar hattaki achnishiga,  
qayg'urishga ham arzimaydi.*

*Ba'zi insonlar yashayotgan boisalar-da,  
qalblari allagachan o'lgan.*

*Bunday o'lik tuproqlarga ishq gulini ekmarang:  
eksangiz, fagatgina ayrlig o'sib chiqadi.*

*Kaktuslar ham Gullaydi*

Har kim har xil xavotir ichida. O'z manfaatlari uchun boshqalarning qalbini azoblovchi insonlar shu qadar ko'pki...  
Qalbini davolash maqsadida yoniga yaqinlashgan insonlarimning barchasi biroz qo'rs.

Atrofimizda bunday holatdan shikoyat qiladigan, ammo, shunga qaramay, o'z holatidan mamnun bo'lgan insonlar bor.

"Menga qarang. Bu ish noto'g'ri, siz noto'g'ri yo'lidasiz, qadrlaydigan inson bunday qilmaydi", – deb kimga maslahat bersak, bizga dushman bo'ldi.


Har kimga o'z jahannami jannat kabi tuyuladi.

Unutmang: bu hayot – sizniki.

Izn berganingiz uchungina insonlar hayotingizda qolishadi,  
izn berganingiz uchun sizni ranjitishadi, xafa qilishadi.

Bunday insonlarni yo'qotishdan qo'rwmang, aslo qo'rwmang,  
chunki shundoq ham ular sizning hayotingizda emas, aksincha siz ularning hayotidasiz. Ular istaganidek yashaysiz va ular xohlagan vaqtga qadar yonlarida qolasiz.

Kech bolmasidan o'z hayotingizga qayting.



Taslim bo'lish yo'q!  
Ertangi kun sizga nimalar  
keltirishini bilmay turib,  
kelajagingizni barbod qilmang.  
  
Albatta, yiqilasiz, o'rningizdan turib,  
yanada shaxdam qadamlar  
tashlamoq uchun ham yiqilasiz.  
  
Yiqilayotgan paytingizda  
atrofingizdan qochib ketgan  
"do'stlar"ingizni unutmang.  
  
Ko'ngil eshicingiz tagidan  
barchasini supurib tashlang.



Hayotimga kirganidan so'ng o'zgarmagan insonni hali-hanuz ko'rmadim.

Kimlarningdir yarasiga malham qo'yib, davolaysiz. Ammolar o'zingizni yaralab ketadi, shu bilan birga, yaralarini davolaganingizni hatto eslamaydilar.

Hozir faqatgina o'zim haqida qayg'uryapman.

Siz haqingizda o'ylar ekanman, qilgan barcha ishim chipakka chiqdi. Sizni himoya qilish maqsadida qilgan barcha harakatlarim ichimdagи shahdimni yo'q qildi.

Voz kechdim.

Voz kechdim, chunki men sizning xudbinligingizga chiday olmayapman.

Hasadingiz, yolg'onga yo'g'rilgan baxtingizni ko'z-ko'z qilishga intilishingiz insonning asabiga tega boshladi.

Bu hayotda bir qancha haqsizliklarga indamay sabr qildim.

Kimlardir o'zini baxtli his qilishi uchun harakat qildim, o'zlarini voz kechib bo'lmaydigan insondek his ettirdim.

Kimlar sevgim tufayli o'zgargan bo'lsa, barchalaridan voz kechdim.



Do'stlik, sevgi, ishq, sadoqat, tushunish, samimiyat...

Bu tuyg'ular birgalikda, o'zaro uyg'un bo'lganidagina go'zaldir.

Kim o'zining haqiqatlari uchun mening haqiqatlarimga, fikrlarimga hurmat ko'rsatmagan bo'lsa, barchasining yonidan sas-sado chiqarmay uzoqlashdim.

Chunki shunday qilish ancha osonroq.

Men insonlarning ochko'zligidan, hirsidan charchadim.

O'zining qo'lidan ish kelmaganligi, muvaffaqiyatsizligi tufayli har kimdan ayb qidiruvchi insonlarning ishlari mena kulgili ko'rindi.

Umri davomida o'z foydasini o'ylamagan, bir insonni baxtli qilish lazzatini his qilmagan insonlarni baxtli qilish bilan mashg'ul bo'lmaning.

Qo'yib yuboring... Qo'yib yuboringki, ular o'z balchiqlarida gul o'stirsinlar.

Siz beg'ubor samoni ko'zlang!

Insonlar biron-bir narsaga faqatgina o'zları uchun erishishni istashadi. Qo'yib bersak, ular butun dunyoni yeb bitiradigan dajada ochko'zdir.

Bu ularning kuchli ko'ringan, lekin, aslida, ojizliklaridir.

Biron muvaffaqiyatga erishishni boshlasangiz: "Ey, juda ham qiyin, menimcha, bu ishni qilmaganingiz yaxshi. Siz qilolmaysiz. Kech qoldingiz. Qo'ya qoling shu ishni", - deb, xuddi sizni o'ylab gapirayotgandek, ajoyib jumlalar bilan yo'lingizdan qaytarishga harakat qilishadi.

O'z bilganingizni qiling.

Voz kechmang!

O'zingiz uchun, kelajagingiz uchun kurashing.

Sizni tushunayotgan kabi ko'riniib, aslida tushunmayotgan insonga muammongizni ikkinchi marta ayta ko'rmang.

Davolash uchun yarangizni ko'rgan insonlar, aslida, davolashmaydi. Yarangizning qayerda joylashganini bilib olishadi va kuni kelganda tuz bosishadi, xolos.


*Anglatganiningizdek kabi inson emassiz.*

*Hayot deb atalmish sahnada o'zingiz yoqtirgan  
boshqa insonlaringiz kabi harakatlanasiz.*

*Qachondir ishonchli chiqqani uchun yuzingizga  
tabassum yugurishiga sabab bo'lган yolg'oningiz  
bir kun ko'z yoshingizga aylanadi.*

*Ovosimiz chiqmayotgan bo'lsa, bu sizga bo'lган  
seygimiz tufaylidir. Bir kuni ertalab - sizni  
qadrlaydigan insonlar yoningizda  
bo'lмаган paytda - nimalar  
qilganingiz haqida o'ylab ko'ring.*

*Ikkinchisi tomon jümgina turganida o'z haqiqatingiz  
bergan o'sha zafarli kunlarni o'ylang.*



*Qochish kerak.*

*Ishq tomon yugurib qochish kerak.*

*Yo'qsa bu shaharning olomoni-yu, shovqiniga chidab bo'lmaydi.  
Barchadan, barcha narsadan ishq tomon qochish kerak - bil-  
madim: daqiqasiga necha kilometr tezlikda...*

*Hattoki kuzga ham ishq yarashadi.*

*Samoda chalinadigan ohanglar sadosi bilan qalbimizni  
to'ldiraylik.*

*Shuningdek, bizga hissiyot kerak.*

*Chunki ishqqa eng go'zal ta'rifni ham his-tuyg'u bergen.*

*Kitob o'qing.*

*Oshiq bo'ling.*

*Seving.*

*Nimanidir yoki kimnidir seving - bu tabiat, biron-bir go'dak,  
hattoki birorta gul bo'lishi ham mumkin - albatta, seving.*

*Yo'qsa, shaharning zulmatli yuzidagi ranglardan boshqa rang-  
larni ko'ra olmaysiz.*

Baxtli bo'lishimiz kerak.

Hech bo'limganda kulishni unutib yubormaslik uchun ham baxtli bo'lishimiz kerak.

Hayotimizdan ketganlar uchun aza tutar ekanmiz, yonimizdagilarning qadr-qimmatini bilmasak, hayot bizni bir kun ularga, albatta, muhtoj qiladi.

Insonlar doimo kimningdir ustidan hukm qilishadi, kimnidir tanqid qilishadi. To'g'ri yo'lda ekanligingizga amin bo'sangiz, tangan bu yo'lingizdan voz kechmang.

**Unutmang: insonlarning nima deyishi emas, Allohning nimani amr etgani muhim.**

Robbimizning yaxshi insonlar uchun doimo bir go'zal rejasi bordir.

Nimalarni boshdan o'tkazganingizni, qanchalar ranjiganingizni bilaman. Xavotir olmang, uyqusiz kechalarda bir o'zingiz qolganingizdan ham xabarim bor.

Ammo bularning barchasi o'tib ketishini ham bilaman.

Qo'rwmang: o'tib ketmasligidan qo'rqqan barcha azoblarining o'tib ketadi.

Yig'i kelajagingizni pokizalaydi.

Yig'lashdan ham qo'rwmang...

Barchasi, albatta, yaxshi bo'ladi.

Balki, bugun emasdир, ammo bir kun, albatta, yaxshi bo'ladi.

Siz, avvalambor, o'zingizni qadrlashni o'rganing.

Boshqa bir inson uchun kurashishdan  
aval o'zingiz uchun kurashing.

Tizzalaringizdagi, qalbingizdagi yaralarni davolang.  
O'zingizni davolash uchun boshqa hech kimdan  
malham izlamang.

Zero malham bo'luvchi inson faqatgina  
yarangizning joyini bilib oladi.

Xato qiling, o'z xatolarining bilan uyg'unlashing.  
O'tmishni qabul eting, o'tmish bilan uyg'unlashing.  
Hayotingizga boshqa qaytib kirishiga izn bermagan  
insoningizdan nafratlanmang. Unutmang: u inson endi  
hayotingizda emas. Uni kechiring...

U endi hayotingizda bo'lmaydi va endi hayotingizga  
aralashmasligi uchun uni kechiring.

Nafrat, adovat, g'azab, kechirmaslik yomon illatdir.

"Inson barcha narsaga ko'nikadi", - deyishadi, ammo aslida unday emas. Boshqa chorangiz qolmagani uchun chidaysiz, ammo ko'nikmaysiz.

Insonlarni o'zgartirishga harakat qilmaysiz: "U ham shundaylardan biri", - deb ko'nikasiz. Agar ular sizning sarhadlaringizni buzib kirsa, aynan shu nuqtada: "To'xta", - deysiz.

Shuning uchun biroz vaqt o'tgach boshqa insonlar uchun mashaqqat chekishni ham istamay qolasiz..

Shuningdek, aytib o'tish kerakki, insonlar o'zgarmaydi, hayot o'zgaradi. Ma'lum bir muddat, faqatgina ma'lum bir muddat barchasi siz istagandek bo'ladi. Qachondir: "Barchasi o'z yo'lida, yaxshi ketyapti", - degan kuningiz, aynan o'sha nuqtada barchasi eski holiga qaytadi. Bu safar ham: "Barchasi uchun shuncha mashaqqat chekdir", - deb voz kechmaysiz.

Voz keching.

Hech kim voz kechib bo'lmaydigan inson emas.

Siz, ko'pincha, ba'zi bir insonlarni o'zingiz uchun go'zal maskanga joylashtirib, qolgan insonlardan qadrliroq qilasiz, ularni o'zingizga uchun qahramonga aylantirasiz.

Haqiqat yuzaga chiqqanda ko'zlaringizni ochib qarasangiz, u insonda ko'rgan narsalaringiz aslida sarob ekanligini anglab yetasiz. "Men uni yaxshi deb o'yabman", - deysiz.

So'ngra uni o'ziga munosib joyga - boshqa insonlarning yoniga tashlaysiz.

Menga ishoning: eng ajoyibini qilyapsiz.

Chunki u o'ziga mos joyni sog'inadi. Shu tufayli ham uni o'ziga munosib o'ringa qo'yish kerak.

Xafa qilishga, qalblarni ranjitishga juda ham ko'nikib qoldik.  
Hatto shu darajada o'rganib qoldikki, kimnidir  
ranjitganimizda na uzr so'raymiz va na uzr kutamiz.  
Hattoki kimnidir ranjitsak, u insonning bizdan  
kechirim so'rashini kutamiz.  
Shunaqa illatlarimiz ham bor. Bu - eng tahlikali illat:  
bundan imkonni boricha qochishimiz kerak.  
Tanolash imkoniyatlari ortdi, insonlar ko'paydi,  
bularning barchasi ko'payar ekan, insonilik ozaydi.  
Shunchaki qilinishi kerak bo'lgan go'zalliklarga  
ham ishlarga yaxshilik deb nom berildi.  
Endilikda insonlar yaxshilikni sizni sevgani uchun emas,  
aslida, o'zini sevgani uchun qilyapti.  
Vaqtin kelsa, yuzingizga solish uchun qilyapti.  
Naqadar qo'rqinchli bir holatga tushib qoldik...  
Ko'p narsalarni unutib yuboryapmiz.  
Biz haqimizdagagi eng kichik tafsilotlarga biladigan  
insonga rad javobini berib, bizni eng arzimas narsalar  
uchun ham ranjitgan insonni tanlaymiz.  
Insonlar xato yo'lga kiryapti, zamon noto'g'ri yo'nalishga  
burildi, tanlovlardan esa boshidanoq noto'g'ri edi.  
*Endi esa har bir odam biri-biriga qaram bo'lib qolgan.*

Nimalar tarqoq bo'lsa, barchasini  
birlashtirishga harakat qildik.

O'z yuragimiz ichidagi tarqoqlikni yo'q qilish  
orniga boshqalar uchun harakat qilayotganimizdan  
beri qalbimizda uyg'unlik yo'qoldi.

Har yer, hamma joyda, har doim shu ahvol.

Ayni vaqtning o'zida ishq, nafrat, sevgi,  
hurmatni o'zida his qilib,  
qalbimizni yondiryapmiz.

Tark etish va shu yerda qolish tanlovi orasida  
qolib ketganimiz uchun,  
aslida, avvaldan tark etilganimizni ko'rmayapmiz.

Shunday insonlar borki, ularning har bir xatosini kechirdik.  
Buni mehrimiz tufayli emas, biroz ahmoqligimiz tufayli qildik.

Inson doimo kutadi.

Baxtsiz bo'lsa, baxtli bo'lismi kutadi. Baxtliligida esa: "Qachondir baxtsiz bo'lismim mumkin", – deb yuragida xavotir bilan kutadi.

Quyoshni kutadi.

Quyoshning bir kunmas bir kun o'z derazasi tomondan ko'kka ko'tarilishini istaydi.

Xafa bo'ladi.

Ranjiysi.

Xafa bo'lganida ko'ngli ko'tarilishini istaydi.

Ranjigan inson doimo kechirishga ham tayyor bo'ladi, xafaligi o'tib ketmasa, yanada battarroq ranjiysi.

Qani, keling, biroz suhbatlashaylik.

E'tibor bergenmisiz-yo'qmi – bilmayman: oxirgi paytlarda hamma ko'zingizga qayg'uga botganday ko'rinsa-da, aslida o'zining rohati uchun: "Unisi bo'lmasa, bunisi", – degan ma'noda qafasda ushlab turgan qanchalab insoni bor.

Kimga ishongan bo'lsak, o'shalar ertasi kuniyoq ishonganimiz uchun pushaymon qildirishadi.

Darhaqiqat, hayotning bir chekkasida yashayapmiz.

Hech kimning yarasiga malham bo'lmaslik kerakligini angladim.

Chunki yara bitgach, malhamni olib tashlashadi.

Hech kim biri-biriga ishonmaydi – so'rasak, barcha benuqson darajada mukammal. Hech kim yolg'oni sevmaydi!

Insonlar ortiq o'zini ko'z-ko'z qilishni, tanitishni to'xtatishsin. Agar qalbda yaxshi niyat bo'lsa, u o'zini namoyon qiladi. Inson sog'lom bo'ladi, sog'lom yashaydi.

Hammaga ham qalbingizni ochavermang, bir yarani unutish uchun o'zingizda boshqa bir yara ochmang. Boshqa bir odamdan foydalanmang.

Tashakkur bildirishni unutmang.

Doimo tabassum bilan qarang. Ayniqla, yaxshilik qilayotgan bo'lsangiz, yanada yumshoq muomala qiling. O'sha inson qarshingizda ezilib qolmasin.

Yolg'onlardan qutuling.

Sizni yoqtirmagan insonlarni majburan hayotingizda ushlab turmang.

Bu hayot – sizning hayotingiz: boshqalar istaganidek yashamang.

Boshqalarga kelgan g'am-alamga quvonmang.



**Kimdir uchun o'zgarmang.**

Boshqalarning qalbingiz chegaralarini buzib kirishiga izn bermang.

Xafa bo'lganingizda: "Xafa bo'ldim", - deng, ammo sizni anglashini kutmang. Shunday bir dunyo yo'qki, siz jim tursangiz-u, kimlardir sizning ko'riningizdan ichingizdagini anglasa.

Barcha narsaga rozi bo'laversangiz, lekin qachondir rad qilishingizga to'g'ri kelganda yomonotliq bo'lasiz.

Endi bir finjon qahvaning qadri yo'q...

Manfaat ustiga qurilgan barcha tuyg'ular bir onda yiqiladi. Boshidanoq tagidan suv o'tgan poydevorning salgina qimirlash tufayli qulashi tabiiyidir.

**Insonlar doimo nimalarnidir istashadi.**

Istaganiga erisha olmasa, ichidagi nafrat zaharlarini tash-qariga chiqara boshlaydi.

Bir chekkaga chiqib, tomosha qiling. Bu nafratning o'zingizga sachrashiga izn bermang.

Meni tark etish istagida bo'lgan insonlar uchun kurashmay qo'ydim.

Chunki siz soxtaliklarga o'rganib qolgansiz.

Ba'zi bir narsalarni o'zgartirish kerak edi.

Amalga oshira oldimmi-yo'qmi – bilmadim, ammo ilgarilarni meni yiqishi mumkin bo'lganlar endilikda hatto qimirlata olma-yapti.

Tortishuvlardan, salgina qimirlash tufayli qulab tushuvchi devorlardan charchadim.

Ustingizga o'zingiz yiqitgan devorlardan endi bir dona g'ishti ni ham olib qo'ymayman. Chunki kuchim o'zimga ham yetmay qoldi.

Tushkunlik qiyofasidagi yorug'lik – meniki.

Ahmoqona hasadgo'yligingizdan, keraksiz laganbardorligi ngizdan voz kechdim.

O'z muvaffaqiyatsizligingizni boshqa insonlarning muvafiqiyatlariga loy chaplab berkitishga harakat qilmang.

Men sizni yenga olmayman, shu tufayli voz kechdim.

Bu – mening o'z ustimidan qilgan g'alabam!

Ba'zi mag'lubiyatlar, aslida, g'oliblikdir.

Bu davr johillar bilan kurashish davri  
emas.

Kurashmang, mag'lub bo'lasiz.

Yo ortingizda qoldiring, yoki yarim  
yo'lda tashlab ketilish ehtimolingiz borligini  
unutmang...

Ammo hayot davomiy yangi yo'llar  
izlaydigan darajada uzun emas.

Yaxshisi, siz o'z yo'lingizni kashf eting.

Agar kurashadigan bo'lsangiz, o'zingiz  
uchun kurashing.

Chunki o'zingizga eng buyuk johillikni  
o'zingiz qildingiz.



Doimo yarim yo'lda qolganlar bilan bo'g'ishaman.  
Go'zal kunlarim davosi zahar bo'lgan insonlar bilan kechdi.  
Kulayotganimda bo'g'zimga tiqilgan qichqiriqni bir necha  
marotaba ichimga yutdim.

Aqdan ozyapmanmi yoki fikrlarim tiniqlashdimi – bilmay-  
man.

Sinov nomi ostida yo'qotilgan butun beg'uborliklar... Barcha  
shu qadar qorong'ilikka botganki, endi bu shaharda quyosh chiq-  
maydi.

Ilgarilari jonimni yoqqan xotiralarimga ko'z uchida kulim-  
sirab qarayman. Ko'nikdimmi-unutdimmi – bilmayman, ammo  
umidimni son-sanoqsiz marotaba samoga yubordim.

Charchadim, biroz dam olishga ehtiyojim bor. Soatlar davo-  
mida suhbatlashishga, meni tinglashlariga ehtiyojim bor.

Meni ko'proq xatoliklar charchatdi.

Shuning uchun ichimdagi gaplarni kimgadir to'kib-solsam,  
balki, o'zimga kelarman.

Ruhimni baxtga taslim qilib, boshimni kimningdir yelkasiga  
qo'yib uslashga ehtiyojim bor.

Ruhimda rangini bilmagan bir umid doimo bor edi. Qachon-  
ki umidsizlikning qorong'iligi ichiga tushib qolsam, ichimdagi  
o'sha sochlari to'zg'igan qizga tayandim.

Meni, bizni, uni, hammani yarim yo'lda qolgan barcha ish-  
larimiz parcha-parcha qildi. Barchaning ishlari shu qadar yarim  
yo'lda qolganki...



Demakki, inson voz kechsa, kuchliroq bo'lar ekan. Voz kech-ganda olgan jarohati, albatta, qachondir bitar ekan. Buni butun jarohatlarim bitgach o'rgandim.

Yaralarim ko'z ochib yumguncha bitmagan bo'lishi mumkin, ammo nima bo'lganda ham, har holda, bitib ketdi.

Tirnoqlarimni tanamga botirib-botirib dardlarimni unutdim. Qalbimning xonalarini qayta-qayta ostin-ustun qildim, tu-zatgan joyimdag'i har narsani yana buzdim, ammo, oxir-oqibat, qalbimdag'i ishq tuyg'usini chiqarib yubordim.

O'z vaqt kelmaguncha uni qayta kiritmayman.

Qorqoq yoki kuchli deyishadimi – endi farqi yo'q... Ko'pchi-likni e'tiborimdan tashqarida, o'z hayotimdan tashqarida qoldir-dim.

Kim nim desa desin-u, lekin men otashda yonib tuzaldim.

Ko'zlarim endi ochildimi – bilmayman, ammo endi juda ham sodda inson emasman. Qalbimni qoplagan yaralar-u chandiqlar bilan o'tiribman.

Tizzalarimni o'zim bukdim, bundan keyin hech kim tomonga bir qadam ham yurmayman.

Voz kechdim.

O'zimga keldim.

Hushimga keldim.

"Ammo mening qalbim pokiza".

O'z qalbining pokiza yoki pokiza emasligi haqida hech kim fikr bildira olmaydi.

Qilinishi kerak bo'lgan ishlarni qilmay: "Mening qalbim pokiza" degan jumlaning ortiga berkinish, insonning o'ziga qilgan eng katta yomonligidir.

Eng oddiy misol bilan aytganda: "Namoz o'qimayman, ammo qalbim toza", – deb o'ylayotgan inson bo'lsa, shuni aslo unutmasinki: payg'ambarimiz salollohu alayhi vasallam oyoqlari shishib ketgunicha namoz o'qir ekanlar: nima ularning qalblari pokiza emasmidi? Aslo. Pokiza edi, barchamiznikidan ham pokiza edi.

Har insonning qalbida yaxshilik va yomonlik bor, ichingizda nima bor bo'lsa, uni tashqariga chiqarasiz. Qalbingiz bog'ini zilol suvlar bilan sug'orishingizga umid qilaman.

Faqatgina o'z manfaatingiz yo'lida harakat qilyapsiz va manfaatlarining tugagach ko'zingizga ko'rinxmay kelgan har narsadan shikoyat qilyapsiz.

Shikoyat qilmang, chunki yo'lning eng boshidanoq har narsadan xabardor edingiz.

Agar barchasiga ko'z yumib, indamagan bo'lsangiz, o'z manfaatingiz yo'lida indamadingiz.

Tanimasdan turib do'st bo'ldingiz, sevdingiz, qadrladingiz. Hammaga maqtagan insoningizning xatolaridan barcha xabardor bo'lgach, o'sha insonning qayeridan tutsangiz ham, yiqilishingiz mumkinligini bilib, sukut saqlayapsiz.

Ammo eng yomoni nima - bilsizmi?

Bitta xato qilishingiz bilan qilgan onlab yaxshilingiz ko'rinxmay qoladi, go'yoki ustiga gazeta yopib qo'yishadi.

Insonni inson sinaydi.  
Axir, "har kim ekkanini o'radi" maqoli bor-ku.  
Ranjigan bo'lsangiz, tashvishlanmang: kim sizni ranjitgan bo'lsa ham, u ham boshqalar tomonidan xuddi shunday ranjiti-ladi.

Bir insonni baxtli qilib, hayotini go'zalliklarga to'ldirgan bo'lsangiz-u, u bunga javoban nonko'rlik qilgan bo'lsa, boshqa bir inson sizning ham umringizni go'zalliklarga to'ldiradi.


Ya'ni qilingan yomonliklar jazosiz qolmaganidek, amalga oshirilgan yaxshiliklar ham mukofotsiz qolib ketmaydi.

Insonlar bir-birlari bilan sinaladi.

Shuning uchun ham xuddi shunday voqeani boshingizdan kechirar ekansiz: "Men uni ham shunday qilishga majbur qilgandim", - deya, bir kun eslab qolasiz.

Sizga go'zal xotiralar tilayman.

(Ibn Kasir) Furqon surasi 20-oyat: "Ba'zilariningizni ba'zilaringizga sinov qildik. Sabr qilasizlarmikin?! Robbing ko'rib turuvchidir".



**DO'ST** deya olish...  
Bir insonning do'stligini his qilish boshqa-yu, uning munosabatlarini do'stlik deb atash – boshqa narsa.  
Bugungi kunda, afsuski, do'stlik boshqa ko'plab munosabatlar singari juda ham mo'rt.

Do'stligi poyonida yetsa-da, sukut saqlovchi, ushbu holatda o'zini haq ekanligini isbotlash uchun boshqa insonga loy chaplamaydigan, o'tmishning hurmati uchun sukut saqlay olgan, o'rta-laridan xafachilik o'tsa-da, hech kimga bu haqida bir og'iz so'z aytmaydigan insonlarga hayron qolaman...

Agar sizga do'st ekanligidan amin bo'lgan insonlaringiz bor bo'lsa, joyingizda turmang, ortidan yuguring, qo'llaridan tuting. Har qanday qiyinchilik paytlarida yonida bo'ling, u ham doimo sizning yoningizda turadi.

Ammo har qadamda sizni ranjituvchi, xafa qiluvchi, qilmishlari bilan charchatib yuboruvchi bir inson bo'lsa, qo'yib yuboring – keta qolsin.

O'zimizga manfaatlar ustiga qurilgan do'stlikni ravo ko'rmaylik. Insonlar "Sizga do'st o'laroq Alloh kifoya qiladi" oyatini butun ma'nosi bilan his qilishimizga yordam berishadi. Buni ich-ichi-nigizdan his qilasiz.

Niso surasining 45-oyatida aytilganidek: "Alloh dushmanlaringizni yaxshi biluvchidir. Valiylikka Allohnинг O'zi kifoyadir. Yordamchilikka Allohnинг O'zi kifoyadir".



Barchasiga o'z xudbinligingiz sababchi.  
Sabringiz, kulishingiz, eng muhimi,  
sevgingiz, ishonchingiz qolmaydi.  
Aslo ishonib bo'lmaydigan insonlar tufayli,  
balki, eng ishonchli insonlardan yuz o'girasiz.  
O'zingiz qadrlanmagan joyda turib qolmang.  
U yerdan bir necha kilometr uzoqroqda yuring.  
Balki, bu bir qadam tashlash yoki  
yugurishdek oson ish bo'lmas,  
ammo qalbingiz bir qadam ortga  
qadam tashlasa, har narsa o'z-o'zidan keladi.  
Inson yo'qolib ketishi mumkin  
bo'lgan mahluqotdir.  
Kimgadir o'zingizni yeb bitirishiga  
izn bermang.

**INSON o'zgarishi mumkin bo'lgan bir maxluqotdir.**

**Inson ikki xil shaklda o'zgarishi mumkin.**

**Birinchisi – majburiy o'zgarish.**

**Biron narsadan charchasangiz, o'zgarasiz.**

O'z kuchingiz qolmagani tufayli qancha harakat qilsangiz ham o'ylagan narsangiz amalga oshmaganidan majburan o'zgarasiz.

**Sizni tark etgan insonning ortidan yashin tezligida yugursangiz-da, unga yetolmaysiz.**

**Qo'lingizdan hech narsa kelmay qolgach sovuq o'rindiqqa o'tirib, yanada qattiqroq siqilasiz va vaqt o'tishi bilan o'zgarasiz.**

**Ikkinchisi – atayin o'zgarish. Sevilayotganini anglaganidan so'ng o'zgaruvchan odamlar bor, bu, menimcha, o'zgarishning eng yomon ko'rinishidir. Intiqom olsangiz,**

**e'tibor berishmaydi; baqirsangiz, eshitishmaydi.**

**Qolishini istasangiz, ketishni tanlashadi. Ketayotgan joylariga sizdan olgan narsalari bilan bирgalikda ketishadi.**

**Ketayotganlarida butun yo'llarni tikanlar bilan to'ldirishadi.**

**Odam bolasi g'amgin bir maxluqotdir.**



**O'zingizning haq ekanligingizni mehr-shafqat tuyg'usini yo'qotgan insonlar oldida aslo isbotlay olmaysiz.**

Ular yolg'onlarni to'g'ri deb qabul qilib olgan bo'lismas, o'zingizning haqiqatingizni qabul qildirishga harakat qilmang, be-korga siqilganingiz qoladi.

Ular bir yaxshilikka javoban minglab yomonlik qilgan bo'lismas, o'sha arzimagan yaxshilikni yuzlariga solmang, Haq huzurida mukofotini olasiz.

Doimo tirnoq orasidan kir izlaydigan, xato topaveradigan, o'zini benuqson hisoblaydigan insonlarning o'zi, aslida, eng katta nuqsonga mubtalo bo'lismas.

Ko'pincha nima deyishimni, bilasizmi? Insonning ichida Allohdan qo'rqish hissi bo'lsin. Hech kim: "A-a-a, boshqacha bo'lishi mumkinmi? Biz barchamiz shundoq ham qo'rquamiz", – demasin.

Barchada ushbu qo'rquv bo'lganda edi, Yer yuzi jahannam bo'lmasdi. Hech kim: "Men kimnidir qalbini og'ritsam, meni ham qalbimni kimdir og'ritadi, Allah ko'rib, eshitib turibdi", – dema-yapti.

Inson qalbiga muhr bosilgach, bo'lib o'tgan hodisalarni o'zing foydasiga talqin qiladi, o'zini haq deb biladi.

Robbim yo'limizda qalbi muhrlangan, marhamat tuyg'usini yo'qotgan insonlarni chiqarmas.



Naqadar ko'p sevgi-yu muhabbatlar, do'stliklar g'azab tufayli nihoyasiga yetadi.

Dindan, urf-odatlarimizdan uzoqlashib, kundan kunga oddiy mavjudotga aylandik.

Taraqqiyot rivojlanib borar ekan, insoniylik yo'qoldi.

Endilikda hayot avvalgidek qiyin emas, umuman qiyin emas. Shunga qaramasdan, bu yarim yo'lда qolishlar nima tufayli yuz beryapti?

Qani edi, kurashish o'rniqa duo etsak edi. Bir nimalarni yo-qib, sindirish oson, lekin, qani edi, sabr qilsak..

**Furqon surasining 63-oyatida shunday deyilgan: "Rohmanning bandalari Yer yuzida tavoze ila yuradigan va johillar ularga xitob qilganda "Salom" deydiganlardir".**

Robbim qalbingizdagи g'am-alamni yengillatsin. Qish tuga-may turib, gullar ochilmas ekan. Sabr qiling, tong bir kuni ertalab siz uchun otadi. Samoga sizning quyoshingiz ko'tariladi.

Tushuntirmang. Iltimos, tushuntirmang. Shundoq ham yuragingiz qanchalik siqilganini bilaman.

Qahqahalaringiz o'rtasida qichqirib yig'lashni istaganingizni bilaman, tushuntirmang.

Ammo har doim shunday davom etmaydi, bir qarasangiz, qurigan daraxtlar gullayotgan bo'ladi. Yangidan tabassum qilishni boshlaysiz, yangidan shirin orzular qurasiz, qo'llaringizni ko'ksingizga qo'yib, o'tmishingizga faqatgina tashakkur bildirasiz. Alloh siz uchun nimalar hozirlayotganini bilolmaysiz-ku...

Qani, o'rningizdan turing va o'zingizga keling. Duo eting.

Axir, Robbimiz aytgan-ku: "Duo qiling, ijobat qilaman", - deb.

**Baqara surasining 186-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Agar bandalarim sendan Men haqimda so'rasalar, albatta, Men yaqindirman. Duo qilguvchi Menga duo qilganda, duosini ijobat qilurman. Bas, Menga ijobat qilsinlar va Menga iymon keltirsinlar. Shoyadki, to'g'ri yo'lni topsalar".**

Bu dunyo muhabbat ila tuzaladi.  
Va siz ichingizdagি go'zalliklarnи  
o'ldirib, sevgidan manfaatni  
ko'zlashda davom etar ekansiz,  
chirkin dunyongizni hattoki  
sevgi ham davolay olmaydi.



Yangi kuningizni go'zallik bilan boshlang.  
O'zingizga bugun bir va'da bering va endi doimiy ravishda  
"xop" deb o'zingizga nisbatan nohaqliк qilmang.

Shunday qilsangiz,  
o'z haqqingizni poymol qilayotgan bo'lasiz.  
Sizni baxtsiz qilgan insonlarni ranjitmang, ammo endi ularga  
sizni xafa qilishlari uchun izn ham bermang...

Endi arzimas insonlar uchun harakat qilib.  
o'z vaqtimni ketkazmay qo'ydim.  
Agar hali-hanuz nafas olayotgan bo'sam, demak,  
baxtli bo'lismiga imkon bor.  
Nima uchun meni qulatgan kechinmalar va insonlar  
uchun harakat qilishim kerak ekan?  
Harakat ham qildim-ku, natijasi nima boldi?..



O'zingizni seving...

Agar sevmoqchi bo'lsangiz, avvalo, o'zingizni seving. Siz o'zingizni qadrlamay turib, butun go'zalligingizni boshqa bir insonga berar ekansiz, uning sizni sevishini kutmang.

Sizni sevmaydigan, sizni qadrlamaydigan, xohlagan paytida hayotingizga kirib-chiqib yuradigan insonlarga eshiklariningizni oxirigacha ochar ekansiz, mahzun bo'lasiz.

Hirs ishq kabi ko'rinvuchi eng tahlikali tuyg'udir.

Doimo o'zingizni kim bilandir taqqoslaydigan bo'lib qolasiz.

Agar inson o'z qadrini bilsa, bunday holatga tushmaydi.

Ha, siz sevdingiz, mahzun bo'ldingiz, u boshqasini tanladi va uning yoniga ketdi.

Ammo hayot shunday. Demak, siz bilan turmush qurishi kerak bo'lgan inson u emas ekan, shu tufayli ham orangizda barcha narsa tugadi va u ketdi.

Barchasini qabul qilib, hayotingizni davom ettirish o'rniga, nima uchun hanuz uning baxtli bo'lishi haqida o'ylab o'zingizni azoblayapsiz?

Axir, yetaricha siqilmadingizmi?

Shunday ekan, o'rningizdan turib, yaxshilab chuqur nafas oling va o'zingizga keling.

Bir yo'lni tanlang.


Mahzun bo'lib, siqilgan paytingizda tilingizdan tushirmay takrorlab yuradigan bir duongiz bo'sin.

O'zining borligini eslatish bilan sizning halovatingizni buzadigan insonning ketishi tufayli siqilishning hech keragi yo'q. O'zining borligidan sevinmaydigan insonning yo'qligiga seving.

**Ba'zan ko'zlariningizni ochishingiz ham azob berishi mumkin.**

Zulmatda edingiz va bir soniyada yorug'likka chiqdingiz.

O'zingizni shunday tasavvur qiling.



Imkonim bo'lganida edi, tanamning azoblangan a'zolarini almashтирар edim. Bilasiz-ku, nozik fikrlaydigan insonlarning xafa bo'lishi, ko'ngli og'rishi juda oson.

Imkonim bo'lganida edi, kechki uyqularimni tartibga solardim, avvalambor.

Endilikda juda tez charchab qolyapman. Bu his og'ir yukka o'xshab ketadi.

Insonlar qo'lining teskari tomoni bilan itarib yuborgan narsalariga qadr berib, buyuk baxtlar orniga kichik baxt uchun xayollar qurganim uchun qulaganman.

Qulagan joyimdan necha martalab qayta-qayta tura oldim...

Tuyg'ularim jarohatlarga to'lib ketgan bo'lsa-da, har gal ornimdan turib, sevishda davom etdim.

Chunki hassos qalbga faqat sevishgina taskin berar edi.

O'ylashimcha, biroz asabiylashyapman. Istaklarim kamayib borgani sayin yolg'izlik yanada jozibali ko'rinyapti.

Menga o'z qalbimning tubsiz chuqurligiga cho'kib ketayotgan insonlarni qutqarish ham og'irlilik qilishni boshladи.

Bir jumla qarshisida baxtli bo'la olayotgan ekanman, har safar qalbimga nashtar sanchilayotganini ko'rib turib, tabassum qilishim soxtalik kabi ko'rinishni boshlaganiga ancha bo'ldi.

Menimcha, charchaganman.

Har safar nohaq odamlarning o'zini qandaydir tarzda haq deb o'ylashganidan, bu mayda-chuyda tafsilotlar ostida ezilishdan juda charchadim. Sizga aytganman-ku, men hech qachon bu davrga moslasha olmadim...



Sizga bir narsa aytaymi? Agar siz o'zingizni qadrlamas ekan-siz, hech kim sizni qadrlamaydi. Men sinash haqida aytmayapman. Masalan, sizni o'zingizga qadrsiz qilib ko'rsatuvchi hech bir ishni qilmang.

Balki, ketayotganingizda biroz qiyalarsiz, ammo mena ishoning: biroz vaqtan keyin hattoki ketish yoki ketmaslik haqidagi o'ylanib turib qolgan vaqtingizga ham afsuslanasiz.

Shuni biling: bu davr kimlar qanchalik hurmat qilsangiz, shunchalik hurmat ko'radigan zamon emas.

Nonko'rlik va marhamatsizlik urchigan bir zamondamiz.

Axloqsizlik o'ziga bo'lgan ishonchga aylangan. Birorta odam ham kimnidir yo'qotib qo'yishdan qo'rqmaydi, chunki o'z qafasida yana kmlardir bor. Hech nimaning qiymati yo'q.

Aytmoqchi bo'lgan gapim shundan iboratki, Allohdan yaxshi narsalarni so'rang, agar amalga oshmayotgan bo'lsa, demak, ushbu narsalarning amalga oshmasligi siz uchun xayrlidir.

**Yunus surasining 12-oyatida** Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Qachonki insonga zarar yetsa, Bizga yonboshlagan, o'tirgan yoki turgan holida duo qiladi. Undan zararini ketkazsak, xuddi o'ziga yetgan zarar haqida Bizga duo qilma-gandek ketaveradi. Haddidan oshganlarga qilayotgan amallari ana shunday chiroyli ko'rsatiladi".



Men ba'zi insonlarning yaxshilik tufayli tuzalib ketishlariga ishonmayman.

Harakat qilmagan demang, harakat qildim, lekin har bir insonga ichida go'zallik yashiringan degan umid bilan yaqinlashganimda yondim.

Yomonlik olov kabi ekan. Sizni yondirib-kuydirmaguncha o'sha insonning yonidan uzoqlashtirms ekan.

Yondim.

Kul bo'ldim.

Hatto o'zimdan ham uzoqlashdim.

O'zimga kelolmayotganimning sababi ham shu bo'lsa kerak. Ortda qolgan narsalar: behuda sarflangan yoshlik, bo'limg'ur xotiralar...

Kuchli ayol bo'lish qiyin.

Ichingizda ming turli azob chekayotib, og'zingizni to'ldirib kulish eng qiyini.


Kulayotgan paytingizda birdaniga yig'lab yuborganingiz, hamma bilan ham baxtli bo'lib bo'lmasligini anglar ekansiz. Oqibatli ekanligiga ishongan insonlaringizning oqibatsiz ekanligini oxirida ko'rар ekansiz.

Hech kimga yaqinlashmaysiz. Biri sizning yoningizga yaqinlashishi esa g'aroyib bir mo'jiza bo'ladi.

Ba'zi insonlarning qo'llari gul kabi ko'rinsa-da, yuraklari tikamlarga to'la: buni u insonlarga yaqinlashganingiz tufayli qalbingiz yonganida tushunib yetar ekansiz.

Bundan keyin mavhum yolg'izlik va biroz zulmat keladi.

Ammo bu tabiiy holat. Har qanday zulmat o'z ichida yorug'likni saqlaydi.



Bu hayotda barcha o'ziga munosib ishni qilar ekan. Menga qilganlaringizni sizga ravo ko'rmadim, ammo ancha avval buni siz o'zingizga ravo ko'rgan ekansiz. Hatto ketgan joyingiz ham o'zingizga juda ham loyiq.

Har narsada bir xayr bordir. Ketganingiz xayrli bo'lsin.


"Joningiz sog' bo'lsin", - demayapman, yuragingizdag'i olov bilan uyqularingizdan uyg'oning, qilgan ishlaringizdan uyaling, afsuslar ichida qovuriling, ammo qo'lingizdan hech narsa kelmasin. Baxt uchun ochilgan ko'zlarining yoshlarga to'lsin, oxir-oqibat to'ladi ham.

Bir gap bor edi: "Hech kimning qilgan ishi javobsiz qolmaydi". Bu gapning beradigan rohati o'zgacha.

Xavotir olmang, men sizdan voz kechdim. Yuragimni kapalakning qanotiga bog'lab, boshqa shaharlarga olib ketganimga ancha bo'ldi.

Yaxshiyamki, hayotimni tark etibsiz. Siz ketdingiz-u, men o'zimga keldim.

Ishq va nafrat tuyg'ulari o'zaro  
muvozanatda bo'ladi.  
Qanchalik qattiq sevsangiz, sizga  
qilingan nohaqliklar shu qadar  
qalbingizni yondiradi.



Sizni yana kechirganimni bilib qolishlaridan qo'rqyapman. Bu haqida so'raganlarga: "Kechirmadim", – deyapman, kuchli ko'rinyapman, hanuz sevishimni his ettirmayapman, ammo hali ham sizni juda ham qattiq sevaman bilasizmi? Buni hatto o'zimga aytayotganimda juda uyalib ketaman, ammo, afsuski, juda ham qattiq sevaman. Xavotir olmang, men sizni kechirdim. Agar sizni kechirmasam, ichimdagi bu azob hayotimni jahannamga aylantiradi. Agar sizni kechirmasam, jinni bo'lib qolaman. Agar sizni kechirmasam, boshqa hech kimni sevolmayman, hatto o'zimni ham.

**Yuzimdag'i soxta tabassumni bilib qolishlaridan qo'rqa-man.** Baxtli bo'lib ko'rinish oshiq bir insonning eng chorasisz holatidir. Men sizni kechirdim, ammo, iltimos, siz o'zingizni kechirmang. Bilaman, menga bu dunyoda jahannam azobini torttirganingiz uchun siz ham o'z jahannamingizda yonasiz. Men sizni kechirdim, ammo Allah bu yurakning yong'inini kechirmaydi.

Siz o'zingizni davolaydigan barcha yo'llarni yoqib yubordингиз. Bundan keyin makonsiz, vatansiz qolasiz.

**Men endi sizning yoningizga qaytolmayman. Men siz to-monga yuzimni bursam, jahannamga qaytgandek bo'laman.**

MEN KUCHLI BO'USHNI ISTAMASDIM.  
AMMO OALB BOSHDAN OYOQ OTASH ICHIDA QOLSA,  
ENDI UNI YONDIRIB BO'LMAYDI.

Boloxonadasovqotib o'tirganingizda  
u boshqa birini o'z bag'rida  
isitayotganini o'ylaysiz.

Sizga qish ayozini qoldirib o'zi esa  
boshqa birining yoniga  
ketayotganida alamlar ichida  
yonganingizni his etarkansiz.



Odatda o'z xonamda o'tiradigan bir insonman,  
oilamning yuzini ko'p ham ko'ravermayman.

Ammo ulardan qachondir uzoqlashsam,

sog'inch deb ataluvchi o'sha tuyg'uni his qilaman.


"Oila sog'inchi boshqacha bo'lar ekan", – deyman.  
Sizning boshqa bir insonni sevishingiz ham shunday bir his

kabidir. Aslida ayro bo'lisingiz emas,

sizning boshqa bir insonga tegishli


bo'lisingiz yurakka otash kabi tushadi.

*Yuragingizni omonat qilgan  
insoningiz sizni har safar  
ranjita verayotgan bo'lsa, bu uni  
Allohga omonat qilishning  
vaqtli-soati  
yetib kelganidan darak beradi.*



*Har narsani juda oson  
tushuntirayotganimga  
e'tibor bermang, sizga oson  
narsalarni anglatmadim.  
Siz faqatgina yong‘indan so‘ng  
chiqqan tutunni ko‘ryapsiz, xolos.*

**Sizni ko'rib qolsam, hech nima  
demay quchoqlab olaman.  
Ammo bilaman hech bir  
ko'cha, hech bir yo'l sizni men  
tomonga keltirmaydi.  
U yo'llarning oxiri kelgan.**



Bu hayotda ko'proq nimani istasangiz, u sizning sinovingiz bo'ladi.

Hech qachon qilmasligingizga amin bo'lgan ishda o'zingiz bosh rolda o'ynaganingizni ko'rsangiz, katta gapirmaslik kerakligini tushunasiz.

Vaqtning davo ekanligini vaqt o'tishi bilan o'rganasiz.

Ketganlarning qaytmasligini, qaytsa ham avvalgi havasi qolmaganini ko'rasiz.

Hayotingizda bir mo'jiza bo'lsin-u va kutgan barcha narsangiz bir kuni ertalab amalga oshsin.

Agar qilgan duolaringiz qabul bo'lmayotgan bo'lsa, bilingki, Alloh siz uchun bundan-da go'zalrog'ini saqlab qo'ygan.

Tavba surasining 40-oyatida shunday deyilgan: "U sheriga: "Xafa bo'lma, albatta, Alloh biz bilan", - dedi".

Jarohatni faqatgina ushbu jarohatni yetkazgan insongina davolay oladi. Shuning uchun ham: "Zaharni zahar kesadi", - deb  
ayriliqning ostonasida turar ekansiz, boshqasi tomon yugurmang. Davo izlayotgan insonlaringiz sizni davolamaydi, aksincha sizga virus yuqtirishadi.

BU HAYOTNING AZOBI  
QAYG'U-ALAM  
CHEKTIRGANLARDAN  
HAM AZOBLIDIR.

Haqiqatan ham, azoblanish degani birovning tortgan azobi bilan o'zingiz tortayotgan azobingizni qiyoslash degani emas. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, insonlarning boshlaridan o'tkazganlariga past baho berish donolik belgisi emas. Har insonning boshidan o'tkazgani turlicha, har insonning boshdan kechirgani va yuzma-yuz kelgan insonlari turfa: qalblari turlicha, qabul qilishlari farqli, qarashlari farqli va tushunchalari, fikrlari farqli. Shu bilan birgalikda har insonning boshidan kechirgan azobi boshqalarni bilan bir xil bo'lmaydi. Boshqa insonning ichidagi tuyg'uni o'z tuyg'ungiz bilan qiyoslamang.

Insonlarning tushunchalariga, fikrlariga past baho bermang, ularning tuyg'ularini hurmat qiling.

Qo'llimizdan ezgu ishlar kelmayotgan bo'lsa, unda yomon o'y-xayollarni haydashning ham biron foydasi yo'q. Agar bir inson shu onda azoblanayotgan bo'lsa, unda qoldirgan izlaringiz uning holatini yanada yomonlashtiradi. Agar yaqinlashishni bilmayotgan bo'sangiz, birlashishni bilmayotgan bo'sangiz, u insondan uzoq turingki, uning jarohati yanada kattalashmasin.

*Bugungi hauoda shamol biroz kuchli.  
xuddi samo azoblarim-u. jarohatlarimqa  
uturayotganday... Kechinmalar tufayli  
yonar ekanman. shamol kechinmalarimning  
izlarini supurmoqchi bo'lqandek  
tumanga aylanyapti.*

So'ngra bir o'zingiz kezib yurgan

bo'm-bo'sh ko'chadagi qaysidir uyning derazasidan

Ahmat Kayaning qo'shig'i qulog'ingizga chalinib qoladi.

Tashqarida qor yog'ayotgan bo'lsa,

sizning ichingizga yomg'ir yog'ishni boshlaydi.

Anglatmagan kechinmalar iringizning asiriga aylanasiz.

Qo'shiqning naqaroti boshlangach,

qoqqan qoziqday turgan yeringizda qotib qolasiz.

"So'yla endi, men qayda-yu sen qayda?"

jumlasini eshitar ekansiz, yuragimni yer

bitan yakson etganingizni tushunib yetasiz.

Mening jarohatlarimni gullar berkitib turibdi...

Siz mening baxtli ekanligim haqida o'ylayvering,  
men qalbimdag'i gullarni o'stirish bilan bandman.

Ularning chamanzorga aylanishini istayman.



BU BO'SHLIQ BARCHADA BO'LADI,  
INSONNING QALBIDA HAR DOIM HAM  
KAPALAKLAR UCHMAYDI,  
BA'ZAN QAYSILARIDIR O'LADI.



*Siz hattoki g'am-alamimga ham arzimaysiz,  
shu tufayli sizga unutilish yarashadi.*

*Men kollar orasida gullar o'stirishga harakat qilibman,  
men toshga urug' ekib, unib chiqishini kutibman: mayli,  
bu mening aybim bo'la qolsin.*

*Oxirida anglab yetdim: mehrsiz insonlar haqiqiy sevgi  
tufayli yaxshi tomonga o'zgarmas ekan.*

*Inson juda qattiq sevib qolgach, o'ziga nisbatan  
noto'g'ri muomala qilmasliklariga amin bo'lar ekan.  
Xuddi shunday, men eng katta xatoni o'zimga nisbatan  
aynan shu joyida qilibman.*

*Siz unutilganingizdan xabaringiz yo'q, o'zingizni hanuz  
sevilayotganingizni o'ylab yurgingizda*

*men ichimdagi qushlarni samoga uchiryapman.*

*Siz bilan o'tirib osmonni tomosha qilish ham xato,  
chunki siz o'z nazaringiz bilan samoni ham qoraytirib  
yuborasiz.*

HOHSICA BOSHINCIZNI QO'VIB UKLAVOTGAN  
INSONINGIZNING QALBINI QARNDAY OILIB OG'RITA OLYAPSIZ?  
BU SEVCAN INSONINCIZNI YARIM YOLDA TASHLAB KETISHNING  
ODDIY VA ODATIY HIKOVASI EMAS-KU, AHIR.  
INSON QILINGAN BIR YAKSHILIK YOLIDA CHEHILCAN  
DARDGA RAHAMIVAT BERMAYDI.  
"YO'O, SEVRADI. MENI JUDR QATTIQ SEVRADI" KABI  
JUMLALAR BILAN O'ZINI O'ZI OVUTAR EKAN,  
URUTILCANICA ISHONMAYDI, CHUNKI BU O'ZI UCHUN  
ISHONIB BOLMAYDIGAN NARSADEK KORINADI.  
BIR MUNOSABATNING SONCIDA KETGAN TOMON ENG QATTIQ SEVCAN,  
TARK ETILISHDAN, YO'QOTISHDAN ENG KOP QO'ROQAN VA:  
"ASLO KETMAYMAN", - DEGAN TOMON BOLIB CHIQADI.  
HA KIM BIROR-BIR JOYDA ASTA-SEKINLIK BILAN  
KIMMINGDIR QALBINI YOQIB, OLDIRYAPTI.  
HECH KIM O'ZINING RAHVOLIDAN MAMOYN EMAS.

Kimdir boshqa kimdir uchun  
chiqolmaydigan boshi  
berk ko'chasi emas.  
Buni sizdan voz kechgan  
kunim anglab yetdim.



Sigaretani ham tashladim.  
 Sigareta chekishini ravo ko'rmaydigan  
 insonim uchun sigareta  
 chekishimning keragi yo'q edi, axir.  
 Shunaqasiyam, bu qayg'u  
 jigarni chirityapti.  
 Qalbim eridi, ichim tugab bitdi,  
 ammo u qalbimda pokizaligicha qoldi.  
 Kechirdim.

Afv etish qiyin bo'ldi, ammo kechirdim.  
 Yelkalarimdan samoga bir yuk ko'tarildi,  
 yelkamdan tog' ag'darildi, qaytib uni  
 hayotimga kiritmadim.

Xadicha Piraye kabi:  
 "Ishqimdan o'lsam-da, ortga  
 qaytmayman", - dedim.


Men biron narsani tushuntirib, anglatayrotganimda angjama-  
 sa, gaplarimni o'zi xohlagandek tushunayotgan be'lsa, shunday  
 tushunaversin. Mening kuchim tugadi.

Men barchasini to'g'ri tushuntirsam-da, ular o'zlarini go'y yo  
 tushunmagan kabi ko'satdilar, aslida esa nima demoqchi  
 bolganimni juda ham yaxshi angladilar. Shunchaki yumalhoq mu-  
 omala qilishlari kerak bo'lgan joyda qo'pollik qildilar. Hamdardlik  
 bildirmadilar, chunki barchasida o'zlarining haq ekanligiga emin  
 edilar

Hech kim: "Qara, azob chekyapti, bunga yanada e'tiborliroq  
 bo'lishim kerak", - demaydi. Tuyg'ularining ichiga boshlari bilan  
 sho'ng'ib ketishadi.

Men oshiq bo'lgan insonning barmoqlari sochlarim ustiga su-  
 zib yurgandi, shunga qaramay, sochlarimda unga oid hech nima  
 qolmasligi kerak edi. Hatto barmoq izlari ham! Umidini kesgan  
 ayol sochlarini ham kesadi! Hatto qo'llidan kelganida vujodidagi  
 barmoq izlaridan qutulish uchun terisini shildirar edi: bularning  
 bari sodir bo'lganda ham tark etilish azobi qadar jonini og'ritma-  
 gan bo'lardi. Ha, qattiq g'azablanyapman, ammo u insonga jah  
 qilolmayman. Ko'z oldimga uning yuzi kelganda ko'zlarimning  
 ichi kuladi, boshqa hech qachon ko'ra olmasligimni o'ylaganim-  
 da ich-ichimdan ko'r bo'lib qolgim keladi. Kechinmalar orasi-  
 da u yoqdan-bu yoqqa yurar ekanman, o'z joniga qasd qilgan  
 sochlarimga yana bir marotaba boqdim. Tark etib ketishlar, mu-  
 nosabatlarning tugashi inson bolasini juda ham qattiq charchatar  
 ekan. Umidlarimiz unib chiqmasdan sarg'aydi, orzularimiz bir  
 zaqqum kabi bo'g'zimizga tiqildi. Yana bir bor tark etilish bu qa-  
 dar oson emas edi.

Osmonim ilma-teshik.  
Qayeridan ushlasam ham, umidlarim  
birma-bir to'kilib bormoqda.



Faqatgina manfaatlaringiz yo'lida harakat  
qilyapsiz va manfaatlaringiz tugashi  
bilan shu kunga qadar ko'rmay kelgan  
xatolardan shikoyat qilyapsiz.

*Mening hikoyam yong'lnlarga to'la.  
Shukurlar bo'lzin, yonib, yong'in tugadi.  
Balki, men ham o'sha yong'inda jon olib-  
jon berib yongandirman, ammo undan  
sog'-omon chiqdim va yong'in tugadi.*



O'z baxtingizni boshqalarga bilan baham ko'rsangiz, kamayishi; baxtsizlig-u azoblarlingizni baham ko'rsangiz, ko'payib borishi haqida o'ylayman.

Agar baxtingiz haqida biron kimsaga ayta turib, qarshingizda o'tirgan insonning bundan, haqiqatan ham, xursand bo'layotgani ni ko'rsangiz, his qilayotgan bo'lsangiz, naqadar yaxshi.


Hozirgi kunning insonlari buzg'unchilik dardiga tushib qolishgan.

Yaxshi davom etayotgan narsalarni buzish, yonayotgan olova yog' quyish hozirgi insonlarning eng mukammal shaklda qiladigan ongosti o'yinlariga aylangan.

Insonlarga baxtli bo'lish yetmay qolgan yoki o'zi baxtsiz ekan, boshqalarning baxtini ko'rolmaydigan bo'lib qolishgan. Bu juda ham qo'rqinchli holat.

Avvallari dardlar boshqa bir insonga aytib berilganda ozayishi haqida gapirishar va, darhaqiqat, o'sha paytlari shunday edi. Hozirgi kunda esa kimgadir dardingizni aytib bersangiz, uning qachon yarangizga tuz bosishini bilolmay yurasiz.

Bunday talato'plar ichida inson haqiqiy do'stlikni orzu qilib qolar ekan.





Inson ayni bir joydan ko'plab marotaba

jarohattanishi mumkin ekan.

Ajablanarisi shundaki, inson ko'nikishi

lozim bo'lgan azobi tufragli har

zarbada yanada ko'proq yonar ekan.

Barchadan himoya qilgan o'sha inson sizni xafa qilishi va buni boshqalarga aytib berayotganingizda uning o'rniga o'zingiz uyalib, yana uning yonini olishingiz, o'yashimcha, eng chorasiz daqiqalaringizdir.

Nimaning qanday ekanligini o'zingiz ham juda yaxshi bilasiz aslida.

Uning harakatlari ostida ezilish, sevgi uchun qabul qilish mumkin bo'lgan holat emas.

Sizning bunday uyalib qolishingiz aslida haqiqatlarni ko'ra boshlaganingiz natijasidir. Ya'ni uning sizni umuman qadrlamaganini o'zingiz ko'rib, bilib turibsiz, shunga qaramay yoningizdag'i insonlarning ta'siridan uni himoya qilishda davom etyapsiz. **Chunki bizga tegishli bo'lgan, bizga oid insonlarning aybini, bizga qilgan yomonliklarini boshqalarga aytmaymiz, boshqalardan berkitamiz.** Bu to'g'ri ish, ammo biz tanlagan inson no-to'g'ri inson.

Qisqa qilib aytganda, har kimning boshqa insonga qilgan amali o'z boshiga ham tushadi. Chunki ilohiy adolatning go'zalligi kechalarimni bezatadi.

Boshqa insonning baxti uchun kurashgan insonlar baxtli bo'lar ekan, u harakatlarni bir harakat bilan yo'qqa chiqargan kim bo'lsa ham qalbdan o'chirib tashlanar ekan.

Boshqa bir insonni yig'latganlarning bo'g'ziga, albatta, bir kun qichqiriqlar tiqiladi.

Shunday bir gap bor-ku: "Sen unutsang ham, Alloh unutmadi, keyinga qoldirishi mumkin, lekin javobsiz qoldirmaydi".

Ko'ksida yaxshiliklar saqlagan har kim dunyoda go'zalliklar qoldiradi.

Nima uchun mahzun bo'lib, o'zingizni chorasiz his qilyapsiz?  
Bir qarang: o'z vaqtida nimalarni yengib o'tdingiz?

Qaysi biri o'tib ketmadi?

Shunchaki barchasining yaxshi bo'lishiga ishoning, shunchaki o'zingizga qattiqroq suyaning. Hayotingizdagi insonlar sizga zarar berib, yoningizdan ketishgan ekan, ularni yo'qotib qo'yganingiz uchun siqilayotgan bo'lsangiz, bilingki, xato qilyapsiz.

Alloh sizning kelajakda mahzun bo'lmasligingiz, afsuslanmasligingiz uchun ularni sizning hayotingizdan chiqarib yubordi.

Ha, balki, qiyin bo'lgandir, balki, takroran baxtli bo'lishingizga ishonchingiz qolmagandir.

Unutmang: siz o'zingizga ishonmasangiz, hech kim sizga ishonmaydi.

**Yaxshi narsalar haqida o'ylang.**

**Tabassum qilishdan to'xtamang.**

**Boshingizdan nimalar o'tgan bo'lsa ham, barchasi sizni yanada yaxshiroq manzilga olib chiqish uchun sodir bo'lgan.**



Inson yolg'iz qolganida hissiz insonlarning unga his qildirgan azoblarini yanada chuqurroq his qilar ekan. Eng shafqatsiz bo'lgan insondan ishq-u marhamat kutibmiz. Eh, qanchalar ahmoqlik!

Men necha martalab yanglishdim. "Bu safar bunday bo'lmaydi", - deganlarimning bari sodir bo'ldi. "Qilmaydi" deganlarimning barchasini qildi. "Sizga to'g'ri kelmaydi", - deb hisoblaganlarimni ham o'zingizga to'g'rilib olibsiz. Ichimdag'i jahannam bir kun ertalab sizni ham kulga aylantiradi.

Bir umrga qancha qish sig'adi?

**Bir qalb necha marotaba adashishi mumkin?**

**Bir ayol bir erkakka necha marotaba taslim bo'lishi mumkin?**  
Turtinib-surtinib barchasini o'rgandim.

Ko'z yoshlарim yonoqlarimdan dardlarimga oqib tushar ekan, sizni yuragimdan asta-sekin tozalab borardi. Ya'ni ko'z yosh to'kish aslo ojizlik emas.

"Sizdan hech narsa o'rganmadim", - deya olmayman. Ko'p narsa o'rgandim.

Avvalo, insonlarning aslida ko'ringani kabi bo'lmasligini o'rgandim. Qattiq sevgining o'tib ketishi mumkinligini va ohvohlar o'z joyini topishini o'rgandim.

Mening oh-vohim shu soatdan boshlab sizning gunohlari-  
ngizdir. Yuzingizni qayerga bursangiz, buring - baribir, azobga ro'baro' bo'lasiz.

Zararning qayeridan qaytsangiz, qayting, yana zarar ko'rasiz.  
Sizga bir gap aytaymi?

Siz u yerlarga juda ham munosibsiz. Bu qalbingizning kirliklari bilan shundoq ham men bilan bo'lolmasdingiz.  
Bu nafrat emas. Bu shunchaki voz kechishning og'riqli holi.  
Jonom juda ham ko'p yondi.

Shu tufayli bo'lsa kerak, siz ham bularni boshingizdan o'tkazishingizni istamayman, ammo, baribir, bir kun sizning ham boshingizga shu kun tushadi.

Qanday azob chektirgan bo'lsangiz, o'zingiz ham xuddi shunday azob chekasiz.

Haqligimdan amin ekanligim uchun o'z yo'limda shahd bilan yuryapman.

Boshqa hech qachon biron kimsa uchun yo'limdan ortga qaytish niyatim ham yo'q. Yana bir marotaba boshqa bir insonning qalbini isitish uchun o'z qalbimni yoqishimga hojat yo'q. Buni siz bilan o'rgandim. Menga o'rgatgan yagona narsangiz shu bo'lishini naqadar istayman... Menga yuklagan, menga o'rgatgan butun bo'limg'ur narsalaringiz bir kun kelib sizning eshigingizni taqilatsin.

Men insonlarning shu darajada yomon ekanliklarini bilishni istamasdim. **O'zingiz umidsizlikka burkagan bu qalbimdan sizni chiqarib yuboryapman. Baxtsizligingiz xayrli bo'lsin!**



Hayotimdagি suyanchlarimni sekin-asta tortmoqdamан, ammo nima qilsam ham hayot deb atalmish bu ne'mat meni doim teskari tomonga yo'naltirmoqda. Umidlarni topa olmayapman, go'yoki ular ko'nglimning jarliklari labiga keltirib qo'yilgandek, burchaklarga berkinib olgandek. O'ylarimning rangi qatronдан ham qora. Vaholonki, bungacha esa rang-barang orzularim bor edi, suyanchlarimni umid bilan tortgan harakatlarim bor edi... Meni yeb bitirayotgan bu ruhiy holatdan na chiqolyapman, na qochish uchun bir manzil topolyapman... Mening jarohatlangan qalbim xuddi toliqqan tog' binafshasi kabi so'lib bormoqda. Yo'q, aslida ommaviy madaniyat daromadi manbaiga aylangan va bir qiziqish bilan sotib olinib, xonaning eng go'zal burchagiga qo'yilgan kichkina kaktusman. O'sha yerga qo'yildim-u, unutildim: buni his qilyapman. "Voz kechilmaydi", - deb o'ylagan barcha narsangizni menga aytib berdingiz. Qalbim sizning muammo-laringiz bilan shu qadar to'lib-toshganiga qaramay, mendan bir marotaba bo'lsa ham: "Bir qultum suv ichishni istaysizmi?" - deb so'ramadingiz. Holbuki, ortga qaytib, shu haqida bir savol ber-ganiningizda bir marotaba bo'lsa-da, samimiyatingizga ishonib ichimdagilarni sizga to'kib socharmidim, balki? Meni bo'rttirilgan bahonalarining shovqini bilan jim qildingiz. Bular barchamizning ichki ovozlarimizning ba'zilaridir, aslida...

Hozirgi kunlarda yanada qattiqroq sukut saqlayapman. Umidlarimni chok-chokidan tikishga qaror qilgan kunimdan beri satrlarga qarab sukut saqlagandek sukut saqlayman. Barchangiz meni juda ham xursand, juda ko'p sayohat qiluvchi, do'stlari ko'p bo'lgan, barcha narsa ortig'i bilan bor bir inson, deb o'layapsiz. Unday emasligini sizlarga tushuntirishga urinsam, kim biladi, yana qancha

kitob yozishimga to'g'ri kelarkin – hatto taxminan aytolmayman. Ha, ruhiyatim qattiq buzilib, hech kim bilan gaplashgim kelmay, o'zimning ichimda o'zimdan ham yashirinishni istaydigan vaqtla- rim ham ko'p boladi. Xuddi sizlar kabi. Ammo men nima qilaman – bilasizlarmi? Ataylab tabassum qilaman, ataylab hayotning ichida bo'lishni tanlayman, g'am-alamlarga battar mukkasidan ketishni is- tamayman. O'zimga qochish uchun kichik joylar topib qo'ydim. Ma- salan, mahallamizdagi eng kam boriladigan, hali ovoza qilinmagan, rasmga tushib ijtimoiy tarmoqlarga rasmi joylashtirilmagan kafelar- dan bo'lgan birni o'zim uchun tanlab olib, uning eng manzarali joyi- dan tashqarini ma'lum bir muddat tomosha qilib o'tiraman. So'ngra olomonning orasiga qorishib, ulardan biri bo'lib yurib ko'raman va bu qolimdan keladi: "Buni qayerdan bilasiz?" – desangiz, o'zimni berkitishni istagan onimda berkitib, yashashni istaganimda olomon- ning ichida yo'q bo'lib qolaman. Barchamiz bir xilmiz: men ham o'sha ko'chalarda ko'rgan insonlarim kabileman: bu satrlarni o'qiyotgan siz ham xuddi shunday. O'zingizni o'zingizga va hayotga xafa qildirib qo'y mang, balki tabassum qilib yashang. Ammo hayot bilan ters tushganidan asosiy maqsadimni ham yaxshilab anglang, xo'pmi?

Bilaman: barchamiz biroz ortiqcha toliqqanmiz.

Bilaman: barchamiz ba'zi mavzularda biroz ortiqcha siqilib, biqinib qolganmiz. Ba'zilarimiz me'yordan oshirib yuborib, hatto xayolparastlik dardlari ichida qolamiz. Dardlarimizni zaharxan- da kulishlar-u yolg'on qahqahalar ortiga yashiramiz. Ba'zilarimiz uchun tunlar zindonga aylangan, kunduzlar esa o'tib ketmaydigan qayg'uli davrga.

Bilaman: barchamiz kelajakdan biroz ortiqcha qo'rquamiz. Men insonlarda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'plab qo'rquv- larni sanab o'tishim mumkin, ammo ular orasidagi eng muhimi – orzu qilishdan qo'rqishimiz!

"Menda qo'rqa digan paytlarim bo'lmaydi", – deb aytolmay- man, albatta. Hech bir inson o'ziga o'rnak deb bilgan mukammal inson bo'lishni eplolmaydi, axir. Tabiiyki, biron insonning bosh-

qalardan ortiqcha ustun tomonlari bo'lganidek, kamchiliklari ham boladi. Hech kim butun umr aybsiz bo'lib yasholmaydi...

Sizga berishim mumkin bolgan yagona tavsiyam: "Dardlari- ngizni, muammolariningizni, qo'rquvlariningizni – qanchalik salbiy vo- qealarni boshdan kechirgan bolsangiz ham – qabul qilishga harakat qiling, chunki barchasi ularni qabul qilishdan boshlanadi".

Sevgilingiz sizni tark etgan bo'lishi mumkin. Eng yaqin in- sonlaringizdan birini yo'qotgan, hayotingizdag'i katta imkon- yatlarni kichik sabablar tufayli qoldan chiqargan bo'lishingiz mumkin, kimdir sizning o'rningizni egallagan va adolatsiz yo'llar bilan sizdan ko'ra muvaffaqiyatiroq bo'lib chiqqan bo'lishi mum- kin. Ammo bu xafa bo'lishingiz kerak degani emas. Yo'q, zinhor, aslo hech bir narsadan yuz o'girmang. E'tibor berdingizmi, uchta ogohlantiruvchi so'zni bir vaqtning o'zida ishlatdim: Yo'q, zin- hor, aslo... Xullas, iltimos bu ogohlantirishimni e'tiborga oling va sizni muammolar girdobiga tashlagan sabablarni qabul qiling. Bu hayotda har narsaning yap-yangi bir boshlanishi bor, ammo siz qabul qilolmas ekansiz, yechim topolmay, faqatgina g'am-alam tuyg'usiga qovurilib bir joyda turib qolasisiz.

"Ichimda bir qayg'u bor, uni yenga olmayapman".

"Toliqdim!"

"Charchadim va qo'rqyapman".

"Bu hayotni tezroq tark etishni xohlayman".

Bu kabi alamli gaplarni xayolingizdan chiqarib tashlang. Uning o'rninga go'zal narsalar haqida o'ylang va ularni ko'proq aytib yuring. Menga ishoning: barchasi yanada go'zal boladi. Shuningdek, ilti- mos, qachon kayfiyattingiz buzilsa, shu haqida o'ylang: Kaktuslar- ning ham tikanlari bor, ammo unutmangki, kaktuslar ham gullaydi.

Marhamatli bo'lishdan aslo voz kechma. Ibrohim surasi- ning 42-oyatida shunday deyilgan: "Hargiz Alloh zolimlar qilayotgan narsadan g'ofil deb o'ylama. Faqat ularni ko'zlar qo- tib qoladigan Kunga qoldiradi, xolos".

Hammamiz keksalardan o'zlarining uzoq umr ko'rish davomida olgan tajribalari haqidagi hikoyalarni o'qiganmiz yoki eshitganmiz, tog'rimi? Bo'lib o'tgan hodisalarni, bir qancha muvaffaqiyat-u, bir qancha kurash hikoyalarini. Va yana bundan boshqa qanchasini...

Moddiy va ma'naviy olamimiz aro barchamiz bir nimalar uchun yelib yuguramiz. Aslida, bilamizki, barchamiz millionlab insonlar ichida kichkina bir zarramiz, xolos. Biz kimmiz, nimamiz, nima uchun bu dunyoga keldik: barchasini juda yaxshi bilamiz, aslida. Faqt dangasa insonlarga aylanib qoldik, xolos. Kimdir toliqqanini bahona qiladi, kimdir qo'rquvlarini, yana biri boshidan kechirgan dardlarini... Bahona deyayotganimda: "Bizlarning dardlarimizni yoki qo'rquvimizni arzimas narsadek ko'ryapti". - deb o'ylamang. Bahona deyishimning sababi shundaki, vaqt chegarasidan o'tib ketgan har bir muammo hayotimiz sifatini o'g'irlaydi, shundan so'ng dangasalik qurboni sifatida bahonaga aylanadi. Iltimos, ozgina chuqur nafas olib, hayotni yanigidan boshlaylik.

Boshimizdan kechirgan og'ir hodisalar hayotning bizga yana-da kuchliroq bo'lismiz uchun bergen nasihatdir.

Bilaman va tushunaman: bu darslar bizni keragidan ortiq charchatadi, ammo nimadir qilib o'zimizga bunday vaziyatlar da yechintilar izlashimiz lozim. Bu umrimizning qolgan qismida ham xuddi shunday davom etmasligi kerak. Shunday emasmi?

Atrofingizga qarang, aynan: "Barchasi tugadi", - deb turgan oningizda Alloh boshqa ajoyibotlarni qarshingizga chiqaradi. Hatto kaktuslar ham gullar ekan, biz nima sababdan ko'ngil qafasimizni umidlar bilan to'ldirmasligimiz kerak?

Yoshi ulug'lar aytgandek, bir eshik yopilgach, ikkinchi bir eshik ochiladi-ku, axir? Tan oling: bu Allohnинг biz uchun yaratgan va biza aytib o'tgan tizimi mahzun bolgan paytarimiz ham, sevingan onlarimiz ham bo'ladi... Bizlar esa qisqa vaqt ichida yechim topib, turib qolgan joyimizdan yashashni davom ettirishni ham bilmaymiz.

*Birga bo'lishni istamayotgan insonni majburlash insonning o'ziga qilgan eng katta zulmidir. O'zimizga tegishli bo'lмаган qalblarga e'tibor berish bizni juda qattiq toliqtirdi.*

*Insonlar charchog'ini bir boshqa insonga suyanib chiqarishni istaydi. Hech kim o'z yukini tashimaydi, doimo tuyg'ularimizni kimgadir topshiramiz.*

*Yolg'izlikning bir bo'shliq ekanini qabul-qilib bo'lishgan insonlar va ushbu bo'shliqqa tushib qolishdan qo'rqishgani tu-fayli yolg'on do'stliklar va ishqlar ko'paydi. Barchasining juda tez tugashi ham shundandir. Modomiki, bizni u bo'shliqda o'z "men"imiz kutib turibdi. Qulashdan, xato qilishdan qo'rqmang. Sizni ko'rishni xohlamagan insonlarning eshiklari yonida uning qachon ochilishini kutib o'tirmang. Ba'zan ko'radigan narsalari-ningiz yuragingizni ko'r qilib qo'yishi mumkin.*

*Nima his qilayotgan bo'lsangiz, u tog'ridir. Bir insonga necha martalab imkon berish u insonga nisbatan sevgingiz naqadar zi-yoda ekanligining emas, o'zingizni naqadar sevmasligingizning belgisidir.*

*Ipning uzilishini kutmang. Bir inson bir xato qildimi, u bilan orangizdag'i butun aloqalarni uzib tashlang. "Yo'q, tuzaladi; yo'q, yo'lga tushib oladi", - degan gaplarni unuting. Bu ko'zlar bitta xatoni qayta qilmagan insonni hali ko'rmadi.*

Yashayotgan yerimiz shunday sirlarga boy dunyo bo'lib qol. diki, darhaqiqat, qachon qayerdan noxushlik kelishini-yu, qachon qayerdan mujda kelishini bilolmay qoldik. Ishoning menaga: sizning haq ekanligingizni tan olyapman, ammo endi o'rning gizdan turib, o'zingizga kelishning vaqt kelmadimi?

**Alloh taolo Sharh surasida:** "Bas, albatta, qiyinchilik bilan osonchilik bordir. Albatta, qiyinchilik bilan osonchilik bordir", – demaganmi? Qani endi, bir chuqur nafas olib, hayotimizda to'zg'ib ketgan nima bo'lsa, barchasini boshidan to'playlik va hayotimizni boshidan boshlaylik. Rozimisiz?

Qalbimizning eng chekka va kimsasiz go'shasidagi dahlizga qamab qo'ygan tug'yonlarimiz soyasida yashirishga urinayotgan, parchalangan ko'plab umidlarimiz bor.


Doimiy ravishda davolanadigan va zum o'tmay yana davolalishga ehtiyoj sezadigan o'nlab tuzalmas dardlar bilan qalbimizni bezab oldik. Oh, bu juda ham mubolag'a-ku? Biz nega hammasini haddan tashqari bo'rttiryapmiz?

Biroz avval yomg'ir yog'ib, shalabbo bo'lgan ustimizga yana mavhumlik yomg'irlari yog'adi. Biz har safar davolaydigan va sog'lom ekanligiga ishongan tanamiz hech kutilmagan onda yana zarbalarni qanday qabul qilib olarkin?

Bir qanotimiz yolg'onchilarning, ikkinchisi esa firibgarlarning yetkazgan jarohatlari bilan to'lgan va hayot esa bizga ushbu jarohatlar uchun malhamni boshqa yangi insonlar orqali yo'llaydi. Ammo biz ishonch deb atalmish tuyg'uni yo'qotganimiz sababli ushbu malhamni olish uchun qo'limizni ham uzatmaymiz. Bizga shifo bo'luvchi insonlarning yonidan shunchaki o'tib ketamiz. Bizni shu qadar toliqtirib yubordilarki, kimlardir salom beradigan masofada yaqin turgan bo'lsa-da, ular bilan so'rashish uchun ham kuch topolmaydigan bo'lib qoldik. Bundan keyin avvalgidek uchib, avvalgidek insonlarning yuragiga qo'nolmaydigan bo'lib qoldik. Ba'zida shunday bo'ladiki, yaxshi deb bilganlarimiz yomon bo'lib chiqadi va shular tufayli kul bo'lgan umidlarimizning atrofidagi bo'rilar dasturxonidan berilgan har luqma oshqozonimizga zahar-zaqqum bo'lib tushadi. Har biri ayro maqsadlar uchun raqsga tushayotgan soxta insonlar mashhurlik uchun, shon-shuhrat uchun musobaqa qilishyapti. Shu qadar ko'p shov-shuvning ichida o'z yo'limizni topib olish va insonlarga nisbatan qo'rquvimiz, to'g'rirog'i, ular tomonidan qo'rqtib qo'yilganimiz tufayli yaxshi insonlarni ham ko'rmay qolyapmiz. Peyami Safo aytganidek: "Yaxshi insonlar boy berishmaydi, boy beriladi", – deb o'z-o'zimizni ovutishga harakat qilamiz.

Ba'zi insonlar gunohlariga tavba qilib, muqaddas qasamlar bilan boshqa bunday qilmaslikka va'da bersalar-da, kirlari tozalanmaydigandek ko'rindi. Bizni yolg'onlariga ishontirolganiga ishonib yuraverishsin, biz barchasining aslida qanday ekani bilamiz. Qayg'ularimizning beshtasi bir joyda, qalbimizning o'rtasida, ojizona bir holda turib, bundan xafa ham bo'lmaydi. Ishonchsizlik, qo'rquv, g'am-alam, sitam va umidsizlik tuyg'ulari yoqamizni qo'yib yubormaydi.

Sizga bir savolim bor: eski kunlaringizning sog'inchi qachon qayta uyg'onib, sizni yana avvalgidek jo'shqinlik bilan hayotga bog'lash uchun harakatni boshlaydi? Hech qachon. Chunki: "Olma pish, og'zimga tush", - deydigan davrlar tugaganiga ancha bo'ldi. Avvalgidek samimiyl muhabbatlar endi yo'q. Hech kim hozirgi paytda maktabdan kelib uyda yo'qligingizni ko'rgan farzandingizga: "Kel, bolam, onangni bizning uyimizda kutib o'tir", - deyishga jasorat qilolmaydi. Eski zamonlar ham, eski insonlar ham endi yo'q. Ammo istasak, boshidan yangi umidlar va samimiyat eshigida yana "biz" bo'lolamiz. Yana "biz" degan tuyg'usi bilan bog'lanib, avvalambor, o'zimizni, keyin esa atrofimizni go'zallashtira olamiz. Hattoki kaktus ham gullar ekan, biz nima uchun atrofimizni o'rab olgan tikanlarga qaramay hayotimizni, boshqalarning hayotini go'zallashtirolmas ekanmiz? Chiroyli-chiroyli gaplarni to'xtataylik-da, tezroq harakatga tushaylik. Shu kitobni o'qiganingizdan so'ng, hech bo'lmaganda, 3 kishini sevintirolasizmi? Buni qanday qilish mumkin, qanday amalga oshirasiz - bu sizning muammongiz, ammo, iltimos, amalga oshirganingizdan so'ng meni ham bundan xabardor qiling, xo'pmi?



Oxirgi vaqtarda quyoshning ilk nurlari tushayotganida endigina uyquga ketgan bo'laman. Shundan beri kechamning kunduzga ulanib ketganini his qilaman. Oylar davomida uyqusiragan ko'zlarim bilan ko'rpamni yuzimgacha ko'tarib, chuqr uyquga ketishni xohladim.

To'lg'anib uslashni qanaqaligini sizga ta'riflab berishni bilmayman. Ichimda ishq bilan qorishgan bu nafrat ichimni, insoniyligimni, go'zal tomonlarimni zaharlayapti.

Yana avvalgidek bo'lolmaslik...

Kimnidir bolalarcha sevolmaslik...

Bir insonning bolalarcha xislatlarining qotiliga aylanishning jazosi faqatgina bu dunyoda emas, ikkala dunyoda ham beriladi.

Umid berish, berilgan umidda u insonni bo'g'ish...

Aslida, omma oldida juda yaxshi notiqman. Nima demoqchi ekanligimni anglatolaman, muammolarga yechim topolaman, lekin dardlarni anglatish xursandchilikni anglatish kabi oson ish emas. Bo'g'zingizga qichqiriqlar tiqilar ekan, tilingizga bir dona jumla ham kelmaydi.

O'zimni o'zim haqimda arzimas insonlarga nimalarnidir tushuntirayotgan holda topdim. Qadrlamaydigan, minnatdor bo'lmaydigan insonlaringizdan madad kutish - choraszilikdir.

Siz menga choraszilikni his qildirdingiz, chorasziz dardi. ngizning darmoni ham menda bo'ssin.

Tushingizda ham qo'rqinchli narsalar tinchlik bermas ekan, dard-lardan biroz chalg'ish uchun uyquga ketish ham davo bo'lomaydi.

Yaxshi bo'lish uchun juda ham ko'p harakat qildim.

Kuchli bo'lish uchun butun kuchim bilan kurashdim.

Kamchilikni doimo o'zimdan izladim.

Inson besabab tark etilgan bo'lsa, ba'zan yakunlardan ham tasalli izlar ekan...

Roppa-rosa bir yil bo'libdi. Birinchi yilimizda turmushga chiqish taklifini kutyapman. Xorijdan qaytishini kutyapman. "Ayrilik'imiz nihoyasiga yetdi", - desam, aksincha endi boshlanayotgan ekan.

Bir ayol nikoh payti tashlab ketishlarini, turmush qurish taklifini kutayotgan bir paytda kelgan ayriliq azobini qanday unutsin?

Shuncha payt sabr bilan ayriliqni kutgan ekanman-da.

"Munosabatlarimiz yaxshi emas", - deb shahar tashqarisiga chiqib, universitetimizdagи do'stlarimiz bilan go'zal bir kun kechirayotgandik. Albatta, u bilan oramiz biroz yaxshi emas, ammo: "Bunday holat barchada bo'lib turadi", - deb o'zimga taskin beryapman.

"Ishga joylasholmadi, oilaviy muammolari bor", - deb sabr qilyapman.

Hech narsadan xabarim yo'q ekan. Mehmonxonaga kelib, endi uyqu kelishini kutib yotganimda telefon jiringlayapti va munosabatlarimiz tugab, ayrilganimizni eshityapman. Ya'ni u ketishni avvaldan rejalashtirib qo'ygan ekan, sababsiz urushlar-u, tushunmovchiliklar ham shu tufayli bo'layotgan ekan.

"Yo'q! Mantiqli bir sabab keltiring", - deyapman, mushtlarimi ni siqib.

Bunga javoban: "Sababi yo'q, bir-birimizni tushunolmayap-miz", - degan kulgili bir bahonani eshityapman.

"Endi meni sevmasligingizni aytin! Sizni bezovta qilmay-man!" - deyapman. Chunki sevilishimdan amin edim-da. Hech nima demayapti. "Demak, sevadi", - deb ichimdagи kulgili umid bilan yolvoryapman. "Modomiki, sevar ekan, men-ga ozor berolmaydi", - deb o'ylayapman. "Oxirgi tomchi qonimga qadar kurashaman", - deyapman. "Bu - oniy tuyg'u", - deyapman, kutyapman, sabr qilyapman. "Oldingi hafta turmush qurishni re-jalashtirayotgandik, hali ham aqlimga sig'mayapti", - deyapman. Aqlimga sig'magan narsa, qanday qilib qalbimga sig'sin?

Sabablar keltirsa, u keltirgan sabablar, haqiqatan ham, imkonsiz bo'lsa, tuzatib bo'lmaydigan narsalar bo'lsa ham, mayli edi, rozi bo'lib: "Taqdir shunday ekan", - derdim, ammo bunday bo'lmadi. "Bunday besabab tark etilish insonni taqdiridan norozi qiladi", - deyapman.

Juda ham baxtiyor bo'lgan onlarimni barcha tafsilotlari bilan eslay olmasligim mumkin, ammo o'sha on, o'sha kun hech qachon yodimdan chiqmaydi...

Hozir qayerda ekanligimni bilmayman. Shahar mening tashlab ketilganimni nishonlayotganiga qaramay, soatlab mashinada yurdim va nihoyat xilvat joy topdim, birinchi duch kelgan skameykaga o'tirdim. Soat kechki necha bo'lganini bilmayman. Ko'zlarimdan oqayotgan muz donachalari iyagimdan bo'ynimga parcha-parcha bo'lib tushardi. Xayollarim sovqotyapti. Bilmaydigan joyimga ketar ekanman, bilgan yagona narsam tark etilganim edi.

U inson meni besabab tashlab ketgan edi.

Hayotiga rang kiritgan insonim, tushlarimni zulmatga bo'yab ketdi. Har kecha qalbimga o'tmas pichoqlar sanchdilar. Bu hayotda ichimdagи ko'tarilgan bo'ronlarni kimgadir aytib bermaslik, aytib bersam-da, uni boshqalar angolmasliklaridan ham chirkinroq biror narsa yo'q.

Har safar titrayotgan qollarimni tizzalarimning ustiga qo'yib, tirnoqlarimni badanimga botirardim. Go'yoki nafas olishni unutib qo'ygandek, uzuq-uzuq nafas olardim. Har bir yakun, aslidan yangi bir boshlanishdir, ammo u inson boshlanishlarni ham o'zi

bilan olib ketdi. Shamol yuzimga to'zg'itgan sochlarimni chap qo'lim bilan ortga surdim. Birozdan keyin sochlarim yana yuzimga tushganda hech narsa qilmadim. Go'yo sochlarim ko'z yoshlarimning ko'pigiga qorishib noz-u karashma bilan yuvinayotgandi... Qo'ng'iroqlarning keti uzilmayotgan telefonimni o'chirib qo'yar ekanman, soatga ko'zim tushib qoldi: 02:45! E'tibor bermay qollarimni yostiq ortiga qo'yib, uyquga ketishga harakat qildim.

Uxlashim kerak bolgan soatda kech bo'lishiga qaramay, ko'zlarim yelkalarimni namlayotgandi. "Iltimos, bugun ko'rganlarim ro'yo bo'lsin", - demayapman, chunki bu tush ro'yo bo'lmaydigan darajadagi dahshatli edi... May oyi bo'lishiga qaramay titroq bosayotgandi, xuddi ketar ekan o'zi bilan quyoshimni ham olib ketgandek. Oqayotgan burnimni qo'lim bilan artib, ich-ichimdan qichqirib yig'lab bo'lgach, boshimni ortga burib, qollarimni ensamda birlashtirdim. Ko'zlarimni yumib, uning kulishini xaylimdan o'tkazdim. Eh, uni yana kechirdim!

Bu kecha nafsim bo'g'zimga bog'langan arqondan farqsiz edi. Ichimdag'i ilhom parilarim qichqira-qichqira o'zlarini devordan devorga urishayotgandi. Bu qanaqa yolg'izlik ekan-a!

Uyqu va uyqusizlik orasida borib-kelib yurar ekanman, xonamning eshigi takroran ochildi. Hech nima demay kutdim. U onam edi, nafas olishidan bildim. Titrayotgan iyagimni ko'rmasligi uchun yuzimni yostiqqa burkab oldim. Oyog'imga o'ralib qolgan ko'rpani ohista chekkaga olib, paypoqlarimni yechdi, qollari issiqliqini edi. To'pig'imga tushgan ko'z yoshini tezlik bilan artib tashladi. Ustimdag'i kurtka va shimni ham yechib, yelkamdan o'pdi va xonamdan chiqib ketdi. Uxlamaganimni bila turib, meni suhbatlashishga majburlamadi. Onam chiqib ketganiga amin bo'lgach, yotog'imdan turib, qora rangli pardalarni oxirigacha yopdim. Ha, shunisi yaxshiroq ekanligini o'yladim. Biroz qorong'ilik har doim huzur beradi.

Uyg'onanimda hali-hanuz chalqancha yotgandim. Qo'limni sumkamga uzatib, o'zimga tortdim. Boshimni yostiqdan ko'tarmay, telefonimni qidirdim, topolmagach jahd bilan sumkamni chekkaga

uloqtirib yubordim. Qo'lim bir muddat ko'rparmning tashqarasida qol-di. Sigareta qutisini topgach, boshimni ham yotoqdan ozgina chiqarib, qutidan bir dona olib, yondirdim. Yostiqni biroz yuqoriga ko'targanimdan so'ng shiftga qarab, sigaretamdan chiqqan tutunlarni ichimga yutdim. Sigareta tutunlarini bir muddat ichimda ushlab turdim. Ayrilqni ketayotgan inson haqiqatga aylantiradi, qolgan inson esa yashaydi.

"Yashaydi", - degani xuddi nafas olishni unutib yashashi kabidir. Tarki dunyo qilib xayoldagi o'sha xayolot olamiga qarab harakatlangan kabi va o'sha yerda azob chekkanday bo'lasiz.

Aks holda, bu dunyoning azoblari og'riqli qalbim uchun koplik qiladi.

Nonushta stoliga o'tirib, zo'rg'a bo'lsa-da, bir nimalar yeb oldim. Onam bir qultum choy ichgach: "Ahvoling yaxshimi?" - deganga o'xshash keraksiz savol berdi. Qo'limdag'i piyolani likop-chasiga qo'yib, sanchqimni zaytunga botirdim. Bir necha marotaba botirishimga qaramay, ilinmagach sanchqini qo'yib, zaytun tovog'iga qo'limni tiqib, uch-to'rt dona zaytun olishim bilan og'zimga soldim. Onam javob ololmagach, dadamning bo'shab qolgan stakaniga choy quydi. Danaklarini birma-bir og'zimdan chiqarib: "To'ydim", - dedim va o'rnimidan turdim.

Kipriklarimdan qulayotgan yoshamrimni lablarim shimirardi. Havas bilan o'stirgan sochlarini kesuvchi ayollar kelajakka bo'lgan butun umidlarini ham shunday kesishadi.

Biroz charchagan, juda ham kuchsiz edim. Dunyoning bir chekkasiga chekinib, oyoqlarimni qornimga yaqinlashtirib, asrlarcha kutishni istayotgandim. Kimdir kelib: "Barchasi tugadi, o'rningdan tur", - deyishiga ehtiyojim bor edi.

Insonlarga bir nimalarini aytib bermaganimga ancha bo'ldi. O'zimni barchadan chegaraladim. Eng yomoni endi o'zimga ham begonaman. Har kuni ichimni parchalovchi bir sog'inch bilan uyg'onaman. Biroz dard, biroz tabassumga to'la sog'inch bilan. Eski bir turkcha qo'shiqning naqarotiga bog'lanib qolgan sevgim... Shundayin sof, shundayin toza...

Endi esa bir nihoyaning boshlanishiga tayyorlanyapman. Endilikda bir nihoyaning ortidan ketyapman. Yo'l o'sha-o'sha, lekin bekatlari boshqa. Endilikda, cho'ntagimdag'i chalajon umidlarimni shamolga otib, ortidan la'natlayapman.

So'z boyligimdan sevish degan so'zni chiqarib yuboryapman. Siz mening jannatimdag'i jahannamimsiz. Meni tushunolmasligingizni tushunolmayapman.

Endilikda, o'zim ham bilmaydigan bir shaharning ko'chasiдан aman. Siz meni o'sha ko'chaga olib borib qo'limni qo'yib yubordингиз. Shunday bo'lsa-da, sizdan xafa emasman. Ora-chora bir-ikki marta qarg'anib, so'ngra baxt tilyapman. Ketishingiz uchun yo'lingizga qizil poyandoz yozib qo'ydim. Ketganingizdan so'ng ko'zlarimdag'i yomg'irli bulutlardan shalolalar yog'diryapman. Balki, qaytarsiz. Bu shahar qaytganingizda toza bo'lishi uchun pokizalayapman. Va siz qaytguningizcha har ko'chasini ma'sumiyatim bilan yuvib, sizga o'zimdan bir parcha tashlab ketyapman. Tezroq keling, sevgilim, meni tezroq toping.

Kunlarim shu taxlit o'tar ekan, tezroq o'zimga kelishim kerak edi, juda bo'lmasa, shuni bilardim. Tinmay kitob o'qirdim. Ongimni meni xafa qilib, zarar berayotgan har bir fikrlardan tozalash yo'lini izladim, duolar qildim.

Shunda tushundimki, har yo'l bir sinov ekan. Bular ham o'tib ketar ekan, o'tib ketmaydigan narsaning o'zi yo'q ekan. Inson olov ichidaligida, balki, bunday deb o'ylamas, ammo hech qachon o'tib ketmaydi, deb o'ylagan qayg'ularingizning barchasi o'tib ketadi. Barcha dardlar kichik bir sinov. Hayot sizga shunday sovg'alar tayyorlab qo'yganki: unutishni xohlamagan insoningizni unutib, qilishni xohlamagan ishni qilasiz. Sizni oldinlari xursand qilib kelgan narsa birdaniga baxtsiz qilishni boshlaganidek baxtiyorlik mujdalari ham hech kutmagan paytingizda boshlanadi.

Hayot bizni ba'zan bir inson bilan, ba'zan esa bir voqeа bilan sinaydi. Boshingizga tushgan hech nima bekorga bo'lmaydi, barchasini Alloh sizning yanada kuchliroq bo'lishingiz uchun yuboradi.

Balki, xafa bo'lgandirsiz...

Balki, yarim yo'lда qolgandirsiz...

Balki, ketmasligiga ishongan insonlaringiz sizga xiyonat qilib ketishgandir...

Balki, Kim uchun azobdan titragan bo'lsangiz, u inson sizni parcha-parcha qilib ketgandir...

Unutmangki, bu azoblarni boshidan kechirgan faqat siz emas-siz, bundan-da noxush azoblarni boshidan kechirgan insonlar ham bo'lgan, eng muhimi, ular o'zlariga kelib, oyoqqa turib olish-di. Unutmangki, ALLOH barchasini yangidan boshlaganlarning yordamchisidir, barchasini yangidan boshlashdan qo'rwmang. Chuqur nafas oling, umidsizlikka berilmang. Barcha sizdan yuz o'girsa-da, yoniga borganingizda sizga yordam berishni kutib tur-gan Robbingiz bor.

Shunday ekan, insonlar sizni xafa qilishganida takroran ularning eshiklari tomon burilmang. Robbingizga egiling!

Nima uchun doimo yaxshilar mag'lub bo'lishadi?

Avvalambor, yaxshi insonlar hech qachon mag'lub bo'lishmaydi. Bir o'ylab ko'ring: u o'zi uchun duo qiluvchi bir qalbni yo'qotdi, barchasiga qaramay, uni boricha seuvuchi insonni o'z qollari bilan o'zidan uzoqlashtirdi.

Agar: "Nima uchun doimo ayni bir narsani boshimdan kechiraman? Nima uchun doim jabr ko'ruchchi men bo'laman?" - deyotgan bo'lsangiz, o'tirib boshingizdan o'tgan hodisalarni bir o'ylab ko'ring. Uning yoniga bordingiz, doim yelib-yugurdигиз, ozor yetkazilgan holingizda ham siz uzr so'raditingiz. Insonlar o'zlari uchun kurashgan insonlarni qadrlashadi. Shu tufayli ham, avvalambor, o'zingizni qadrlashni o'rganing, shunda doim

ayni bir joydan jarohat olavermaysiz. "To'xta", - deyishni o'rga-  
ning. Bilmaysiz-da, insonlar sizni xafa qilishdan chekinishmaydi.  
"Yo'q", - deyishni o'rganing. Barchaning har bir dardiga darmon  
bo'lishga ulgurolmaysiz, chunki insonlar uchun qanchalik yax-  
shilik qilsangiz ham, bir marotaba: "Yo'q", - deyishingiz bilan yo-  
monotliq bo'lasiz.

Yaxshilar yo'qotishmaydi. Bir inson sizga yomonlik qilgani  
sababli aybdor bo'lib qolmaysiz, shunchaki hayotingizdag'i uning  
roli poyoniga yetgan bo'ladi. Unutmangki, har kim o'zi loyiq  
bo'lgan joyga boradi. Kunlarning birida baxtiyor bo'lib, yangi  
hayot yo'lini boshlaganingizda sizni yarim yolda tashlab ketgan  
insonlar hayotingizga qayta kirishlari uchun yo'l ham topolmay  
qolishadi.

Dardlar bizga har doim bir nimalarni o'rgatadi.

Robbim bandasini xafa qiladimi?

Yo'q, o'rganishingiz uchun sizni sinaydi.

"Sabr qila olarmikin?" - deb dard yo'llaydi.

Siz sabr qilar ekansiz, Alloh o'zingizga ham  
bildirmay go'zal yo'llarda siz uchun gullar ekadi.

**Alaq surasining 5-oyatida shunday deyilgan:**

"U insonga bilmagan narsasini o'rgatdi".

Nima uchun: "Meni xafa qildi, ammo o'zi esa hozir juda ham baxtli", - deb ko'nglingizni cho'ktiryapsiz? Har kim vaqt kelganda jazosini oladi. Siz kechiring.

Bilaman, qiyin.

Ammo agar Allohning siz uchun yanada go'zal eshiklarni ochishiga ishonib, hayotingizni tark etgan insonlarni kechirib, chiqarishingiz kerak bo'lgan saboqlarni chiqarib, shukur qilsangiz, menga ishonavering: hayot sizga gullar taqdim etadi.

Sizning ko'nglingizni og'ritib, xafa qilgan insonni birdaniga kechirib yuborish qiyin bo'lishi mumkin, ammo siz uni unutmaguningizcha u o'z hayotini yashashda davom etar ekan, ichingizdagagi nafrat bilan uning hayotingizga aralashishiga izn bergen bo'lib qolasiz. Buning nima keragi bor? Kechiring va taskin toping. Nafrat insonning ichidagi butun go'zalliklarni tushkunlikka aylantiradi. Bir kishi tufayli barchadan nafratlanishni boshlaysiz. Uyingizdan ham chiqolmaydigan holatga kelib qolasiz.

Hayot sizga doimo nimalarnidir o'rgatishni istaydi, siz kerakli saboqni chiqarmaguningizcha tinimsiz ravishda ayni narsalarni boshingizdan kechiraverasiz.

Aldangan bo'lsangiz, yana aldanasiz. Yo'lingizdan yomon insonlar chiqishgan bo'lsa, bilingki, ular haqiqiy yo'lingizni topishingiz uchun bir sababchi bo'lib xizmat qilishadi.

Hayotdan olishingiz lozim bo'lgan saboqni olib, oldinga qarab yuring. Yiqilganingizda, darrov o'rningizdan turishga shoshilmang. Ruhingiz zadalandi, yuragingiz og'riydi. Yiqilgan joyingizda qoling, biroz kuting, dam oling, o'ylab oling. Nima uchun yiqilganingiz sababini toping. Sevgan insonlaringiz ochgan jarohatni boshqa bir inson berkitishini kutmang. Jarohatlar duolar bilan tuzaladi. Inson malham bo'lganida edi, jarohat bermas edi.

Qanchalik qadrlasangiz, shunchalik qadrlanadigan, qiyimatingiz bilinadigan zamonda emassiz. Sizni baxtsiz qilgan va yo'qotib qo'yishdan qo'rwmagan inson bilan bir joyda qolmang. Qo'yib bering: sizni istayotgan siz uchun yelib-yugursin. Shunday qilsangiz, qadrinigizni bilasiz. Agar sizni xafa qila turib o'zi og'rwmagan, sizga e'tibor bermagan va sizni yo'qotishdan qo'rwmagan insonlarning yonida ekansiz, demak, noto'g'ri joydasiz.

Shunday bir payt keladiki,  
bo'lmasligiga ishongan narsalarimiz bo'ladi.  
Kutmagan baxtimiz eshigimizni taqillatib  
keladi, shunchaki biz buni istashni bilishimiz  
lozim. Alloh samimiyoqdu qilgan  
bandasini qo'lini quruq qaytarmaydi.

Buyuk Qur'onda kelganidek:

**Baqara surasining 216-oyatida shunday  
deyilgan: "Shoyadki, yoqtirmagan  
narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa.  
Va shoyadki, yoqtirgan narsangiz siz uchun  
yomon bo'lsa. Alloh biladir, siz bilmassiz".**



Fikrlarimning aqlimga kelgan davridaman. Yoki men juda  
ham ko'ngli bo'shman, yoki insonlar juda ham qo'pol. Men maq-  
tagan insonlarning nima qilayotganini boshqa birovga aytishdan,  
ulardan maslahat olishdan qo'rqaman. Meni tark etgan do'st-  
liklardan doimo boshimni egib ketganman.

Chunki men izn berdim.

Ammo angladimki, hayotimizga hech kim shunchaki kirib  
kelmas ekan. Inkor qilgan narsalarimning barchasini idrok qilib  
qabul qildim.

Yurayotgan yo'llaringizga umid urug'larini eking. Agar  
yarim yo'lda qolib ketsangiz, ortga qaytayotganingizda u yo'l  
gullarga to'lgan bo'lsin.

Hayotningizga keraksiz insonlarni naqadar ko'p kiritgani.  
ngizni bilasizmi?


"Mayli, u xafa bo'lmasin; mayli, buning ko'nglini olay; mayli, mendan ranjimasin", - deb o'zingizga o'zingiz qanchalik zarar berayotganingizni bilasizmi? Bunday ishlarni endi qilmang, bularning barchasiga bir marotaba: "To'xta", - deng. Amin bo'lingki, yana hech kimning dilini og'ritmay: "Yo'q", - deya olasiz, o'zingizni qurban qilmay atrofingizdagilarning ko'nglini shod eta olasiz. Har doim barchasini ichiga yutadigan inson siz bo'lman. Bu mumtoz qonuniyat eng to'g'risidir. Puf-puflab birovning qalbi ni o'ylashdan to'xtab, o'zingizga ham nimadir yaxshilik qiling va: "Adolatni ta'minlashga harakat qilaman", - deb o'zingizni boshqa bir insonga aylantirib qo'yman. Bir insonning o'ksimasligi uchun murosaga borishingiz sizni emas, u insonni xursand qiladi. Ha, insonlarni xursand qilish juda ham yaxshi, buni qilish qo'lingizdan kelayotgani tufayli his qilayotgan quvonchingizga til ojiz, ammo bu ish siz tutgan yo'l bilan qilinmaydi, do'stim. Bir insonning qalbi og'rimasligi uchun qilgan rahmdilligingiz bir kun aylanib kelib o'zingizning qalbingizni og'ritadi. Men sizga: "Hech kimni rozi qilmang, hech kimga xo'p demang", - demoqchi emasman. "Yoningizga kelgan insonni xafa qiling, dilini og'riting, azoblang", - demoqchi ham emasman, aslo! Faqatgina amin bo'lingki, har narsaning me'yori va eng ma'qul ko'rinishi bor. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bizga tanbeh berib: "G'uluvga ketmang" - demaganlarmi? G'uluvga ketish, berilib ketish sizga hech qachon foyda keltirmaydi. Shu tufayli har doim, har qanday tuyg'ungizni nazorat qilib, doimo orzu qilganingizdek emas, me'yorida qo'llang. Bergan va'dalariningizga rioya qiling, sa-xiy bo'ling, g'uluvga ketmang va bir insonga biron yaxshilik qilgan bo'lsangiz, uni qaytarib olmasangiz ham, tilingiz bilan yuziga musht tushirib, qilgan yaxshililingizni yo'qqa chiqarmang.

Bu haqida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Qilgan ehsonini qaytarib olgan insonning ahvoli itning ahvoliga o'xshaydi: ovqatidan ozgina yeb, qorni to'ygach, ortig'ini qayt qiladi. So'ngra ortiga qaytib o'sha qayt qilgan narsasini yana yeydi".

Ha, bugungi kunda ba'zi insonlar qayt qilgan narsasini qayta yeydigan it kabi qilgan yaxshiligini unutib yubormay, minnat qilib har narsani barbod qilishadi. Iltimos, insonlarga yaxshilik qilar ekansiz, yuqoridagi hadisni yodingizdan chiqarmang. O'zingiz uchun keyinchalik undan foydalanish maqsadida emas, maslahat-u yordamingizga, haqiqatan ham, ehtiyoji borlarning dardini eshitib yordam bering. Bu gapimdan har kim o'zgacha ma'no chiqarishi mumkin, ammo gapimni qanday tushungan bo'lsangiz ham, qilgan yaxshililingizdan o'z ulushingizni olishingizga aminman. Sodda bo'lishni yig'ishtiring. Soddalik va yaxshilik orasida juda ham nozik bir farq bor buni unutmang.

**Kimnidir tinglayotgan bo'lsangiz, uni chin dildan tinglang, o'zingizni tinglayotgandek ko'rsatmang!** Shunday tinglangki, erta bir kun sizni ham tinglashlariga ehtiyojingiz tushsa, jon quloqlari bilan tinglashsin. Hech kimning aqli noqis emaski, shuning uchun har qanday inson uni qanday tinglayotganingizni his etadi. Shu tufayli samimiyatingizni o'zingizga muhtoj bo'lgan insondan qizg'anadigan bo'lsangiz, kun kelib u ham o'z samimiya-tini sizdan qizg'anadi.

Suhbatlashishga arziyadigan biron-bir muhim gapingiz bo'lmasa, sukut saqlang. Insonlarga biron narsani ochiqlab tu-shuntirish uchun oldi-qochdi gap o'yinlari qilishni to'xtating, qarshingizdag'i inson sizning o'ziga nisbatan qanchalik sami-miy ekanligingizni bilib oladi. Mardlarcha, lo'nda va qisqa qilib, bo'ladigan gapni gapiring. Sizdan iltimos: qilgan ishingiz xato bo'lsa ham: "Men sizga nisbatan bunday noto'g'ri ish qildim, lekin, ishon: bundan afsusdaman", - deyishni o'rganing. Insonlarni aldash-ni bas qiling. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning quyidagi gaplariga quloq so-ling: "**Bizni aldag'anlar bizdan emas!**"



Taqdir bizlarni turfa xil tuyg'ular bilan doimiy ravishda doimo sinovlarga boshlaydi. Ba'zan qarshingizga shunday biri chiqadiki, Alloh sizni shunday biri bilan teng qilib qo'yadiki, siz: "Undan ko'ra munosib, undan ko'ra jozibali, undan ham mag'rur, undan ko'ra yaxshiroq tushunadigan, undan ko'ra odobliroq inson bu dunyoda boshqa yo'q", - deb o'ylab qolasiz. Qalbingiz undan boshqa hech nimani ko'rmay qo'yadi va she'rlardagidek: "Bir tuyg'u ta'sirida ishqimni nihoyat topdim", - deb o'ylab, bor-yo'g'ingizni, butun tuyg'ularingizni unga sarf qilishga g'ayrat qilib qolasiz. Va shunday bir kun keladiki, hayratdan yoqa ushlaysiz! G'ayrat va hayrat aslida bir-biriga naqadar yaqin tuyg'ular. Bir ish qilishdan avval niyat qilib, uni amalga oshirish uchun bor kuchingiz bilan harakat qilasiz va natijasini ko'rib, o'zingiz ham hayratda qolasiz. Ammo ishqiy munosabatlarda bunday emas. Agar qo'lingizdag'i narsalardan to'g'ri foydalanishni bilib, o'zingizdan nimani, qancha va qay tarzda berishni bilib sevsangiz, natijasining go'zalligidan yaxshi ma'noda hayratlanasiz va baxtli bo'lasiz. Lekin, yuqorida aytib o'tganimdek, har tuyg'ungizning yuksalishiga harakat qilib, o'zingizni pardalab qo'ysangiz, natijasining qanchalik og'ir bo'lganidan hayratlanasiz va qo'rquamanki, bu hayratingiz yaxshi ma'nodagi hayratlanish bo'lmaydi. **Unutmangki, o'z haddingizni buzadigan har qanday tuyg'u sizni noxushlik bilan hayratga soladi.**

Boshingizni ikki qo'lingiz  
 orasiga qo'yib yomon narsalarni  
 o'ylashni yig'ishtiring va go'zal  
 kelajak uchun harakat qilishni  
**boshlang.** Alloh sitam  
 yetkazadiganlarni emas,  
 amrlariga bo'ysunib harakat  
 qiluvchilarни yaxshi ko'radi.



Xonimlar va janobslar, chiroysi so'zlarga  
 hojat yo'q... Hayotga haqiqiy go'zallik  
 bilan qarashni o'rganing, beg'ubor  
 qalbingiz bilan sevganingizning  
 ko'zlariga boqib: "Sizni sevaman", – deng.

O'sha kungi hayotingiz har  
 qachongidan ham go'zalroq o'tadi.

**Har narsa yanada go'zal  
bo'lishga munosib.**

**Yaxshi narsalarни о'ylasak, bas.**

Shundayin yaxshi insonlar borki, hech kutmagan paytingizda yarangizga malham bo'lishni, nima qilib bo'lsa-da, sizga vaqt ajratib, sizga darmon bo'la olishadi, chunki ular, haqiqatan ham, sevuvchi insonlardir. Ishonchingizni oqlab, sizga aslo: "Uff", - demay, aslo boshingizni og'ritmay, umrlari yetganicha sizni o'zlarining yonlarida olib yurishadi. Muruvvat ko'rsatishning bir yo'lini qilishadi, chunki ular sevgini qalban his qiladilar. Sizni Allah uchun sevganlari tufayli bir necha kilometr uzoqda bo'lsalar ham, og'ir ahvolga tushib qolsangiz, buni his qilib: "Salom, yaxshiman?" - deyishni bilishadi.



Bir kuni Bodrumda ta'tilda edik. Mehmonxonaning bog'ida katta-katta kaktuslar bor ekan, ularning birining yonida kichkina "bolasi" bor ekan. "Qalinroq bir qo'lqop bilan shuni qo'porib, uyimdag'i bo'sh tuvakka shuni ekib qo'yaman", - dedim. Uni qo'porib olish uchun o'ngga-chapga bukar ekanman, ustidagi tikanlari qo'limga botdi. Qo'lqop kiyib, tikan kirishining oldini olgan edim, ammo bu men uchun bir saboq bo'ldi. Ya'ni bir nima ni o'z yeridan, yurtidan, uyidan ayirishga harakat qilsangiz, shu ondayoq uni qo'riqlovchi nimadir kelib, sizga jarohat yetkazib, qonatadi.

Men u o'sha "bola" kaktusni qiynalib bo'lsa-da, qo'porib oldim va uyimdag'i tuvakka ekib qo'ydim. Biroq mening qilgan ishimga qaramay, u shunchalik yashil bo'lib o'sdiki, hali-hanuz o'sishda davom etmoqda, biroq faqat tepaga qarab o'syapti. Chunki uni yurtidan ayro qilganim uchun menga o'z noroziligini bildirib, gullamayapti. Inson bolasi ham shunday: unga ham biron narsani majburlab qildirsangiz yo o'z bilganini qiladi, yoki har imkon topganida sizga o'z tikanlarini botiradi.

Doimo o'z istagingizni qilishni xohladingiz. Siz istagan narsa amalga oshmagach, sizga yaxshiliqi qilgan insonlarni hatto xayol-lariga ham kelmagan narsalarni qilganlikda aybladingiz.

Qilmagan ishi uchun uzr so'rash, yemagan somsasi uchun pul to'lash, aybi bo'lmay turib, aybdor kabi yig'latishlari insonga og'ir botadi.

Nozik qalblarning sukunatini hech qachon tushunolmaysiz. Yonlarida qolishingiz uchun qilgan qanchadan qancha harakatlari zoye ketganini sizga hech qachon izohlay olishmaydi.

Manfaatingiz yo'lida o'zgargan insoniyligingiz va behuda o'zgaruvchan bo'lib qolgan ruhiyattingiz tufayli bir insonni ikkilantirib qo'yasiz.

Qat'iyatli emassiz, shuning uchun ham gunohlaringiz-u xatolaringizni tan olmaysiz.

Sizga yaxshi munosabatda bo'layotgan insonlardan biron-bir manfaatingiz bo'lmasa, ularni hayotingizdan chiqarib yuborasiz.

Yolg'iz qolgan insonlarga jahl qilmang, chunki ular yolg'izlikni tanlaydigan darajadagi xato qaror qabul qilishgan.

Qalbingizni muzlatmang.

Sizdan sovigan ko'ngillarni isitishga urinmang: muzlar ichida yongan o'zingiz bo'lib qolasiz.

Yonasiz-u, lekin biroq buni hech kimga aytolmaysiz.

Ichingizdag'i yong'inni ko'z yoshlarigiz bilan o'chirishga harakat qilasiz-u, lekin hech kim sizga qo'llini uzatmaydi.

Shundoq ham azoblangan qalbingizga bu og'irlilik nima uchun kerak? Yuragingizning qushnikidek qanotlariga yana qancha og'irlilik yuklaysiz? Unday qilmang! Ucholmaysiz!

Sizni sevishmayotganini his qilgan yeringizda turib qolmang. Barmog'ingizning uchi bilan bo'lsa ham yuring va u yerdan keting.

Bekordan bekorga kuch sarflab, soxta gulni oylab parvarishlagan kabi bo'lib qolasiz... Gul, balki, so'lmasligi mumkin, ammo gullamaydi ham.

Hayotingizning iplarini qachon qo'lingizga olasiz? Qachon o'zingiz uchun ham harakat qilishni boshlaysiz? Siz tomon intilmayotgan insonlarning ortidan yuguraverib charchamadingizmi?

**Ko'zdan yiroqda hasrat chekish yonma-yon turib hasrat chekishdan ko'ra yaxshiroq.**

**Qalbingizga yaxshilab qarang va charchaganingizni his qiling. Yukingizni yengillating, sizni xayoliga ham keltirmaydigan insonlarni qalbingizda tashimang.**

Bu qalbni yer bilan yakson qilgan inson bilan xayollariningizni and qilmang.

Bunday dard bilan yashab bo'lmaydi, yangi bir baxtiyorlik ashf qiling. Bir mushuk yoki bir kaktus sotib oling va uning gulsini kuting.

**Ko'rasiz, agar sevs'a va sevilsa, kaktuslar ham gullaydi. Ammo ba'zi qalblar ancha oldin qurib qolgan...**

Muammo nimada bilasizmi? Bundan buyon inson qadrining ijtimoiy tarmoqlardagi mashhurligi va boyligi bilan o'lchanishida.

Ya'ni endilikda kamtarlig-u, mehribon qalbli bo'lish uncha ko'p narsani hal qilmay qo'yan.

Ba'zi insonlarni samimi deb hisoblamayman. Hatto ularning ijtimoiy tarmoqlarda kabi emasligini bilaman, hatto unday emasliklarini ko'zlarim bilan ko'rganman ham.

Qandaydir moliyaviy manfaatlar uchun o'zliklarini yo'qotishlari meni ulardan uzoqlashtiradi. O'ylaymanki, shu tufayli uzoq muddat o'zgarmay qolaman. O'z holimcha qolishni sevaman.

Bo'rilarning samimi ko'ringan dasturxoni hech qachon e'tiborimni tortmagan, tortmaydi ham.

Kundan kun zamonaviylashib borishayotgani tufayli ularning oxiratini o'ylash ham qo'rqinchli.

Ya'ni uzoqdan qarab, doimo ularning ornida bo'lib qolishni istagan insonlaringizga shu nuqtayi nazardan qarashni tavsiya qilaman.

Hozirgi holatingizdan sevining. Sevinmayotgan bo'lsangiz, turgan joyingizni go'zallashtiring.

Har kimning hayot tashvishi har xil.

Hech kimning hayoti to'la-to'kis emas.

Insonlarning faqatgina qalbi yo mukammal, yoki muhrangan bo'lishi mumkin.

Sabr qilaman, kutaman, mening qalbim og'igan bo'lsa-da, meni azobiagan inson azoblanmasligi uchun yashirinchha ko'z yoshi to'kaman.

Qadrlaganimdek qadrlanmasam, u insondan uzoqlashtaman.  
Nima uchun uzoqlashmasligim kerak, axir?..  
Yaxshi bolishni ahmoqlik deb biladigan insonlarning yoni-  
da qolishning o'zi ahmoqlik aslida. O'zimni ifodalay olmayot-  
gan bo'sam, doimiy ravishda o'z qilayotgan narsamning aslini  
izohlashga intilayotgan bo'sam, qarshimdag'i insonni boricha  
qabul qilib, o'zim borimcha qabul qilinmayotgan bo'sam, bunday  
holat meni, tabiiyki, xursand qilmaydi. Erkim cheklanadi, avvalo.  
Borib o'sha soxtaliklarining ichida bo'g'ishaverishsin: men  
shundayligimcha qolishdan, yolg'izlikdan, soxta do'stliklarsiz  
shundoq ham baxtiyorlik his qilaman. Axir, bekorga aytishma-  
gan-ku: "Hayotingda inson qancha kam bo'lsa, shunchalik huzur  
ko'p bo'ladi", - deb.  
Men uchun yonimdag'i samimiylar insonlar yetadi. Menga atro-  
fimda men uchun g'amxo'rlik qiladigan, chiroyli so'zlar aytuvchi,  
menga hasad qilmaydigan, bil'aks xursandchiligimga mendan  
ham ko'proq sevinuvchi insonlar bo'lishining o'zi yetadi.  
Qalblari yomonlikdan qorayib ketgan insonlarga "Balki, bi-  
roz bo'lsa-da, yaxshilik qilishni o'rgatarm'an", - deb harakat qilish-  
dan charchadim.  
Tushundimki, har kim barchasini juda ham yaxshi biladi.  
Insonlar shunchaki o'zining manfaatiga to'g'ri keladigan narsani  
qilishadi.  
Agar bir insondan biron manfaat bo'lsa, sizning barcha yax-  
shiliklaringiz-u fidokorliklaringizni unga almashaveradi.



Baxtsiz holda uyg'onmay qo'ydim. Yegan luqmalarim  
bo'g'zimizga tiqilmay qo'yi. Avvalambor, ba'zi qalblarda muhab-  
bat qidirishdan foyda yo'qligini tan oldim.

Kuchga to'lib boryapmanmi yoki kundan kunga o'zimdan  
ketib qolyapmanmi - bunisini bilmadim.

Mavhumliklar o'tasida kurashish insonni o'zgartiradi. Hat-  
toki kaktusning ham guli bo'lar ekan-u, lekin sizda esa qalb ham  
yo'q ekan.

Bu kabi ma'noli go'zalliklarini uzoqdan kuzatyapman: naqa-  
dar chirkin...

Sizga naqadar go'zal boqqan ekanman.


Qalbimni egallagan nafratim bilan ko'p kurashdim, oxirida  
uni mag'lub qildim, endilikda sizdan hatto nafratlanmayapman.

Bundan boshlab siz duolarimga ham munosib emassiz.

Chekkan ohlaringiz umringizga osilib qolgan bo'lsin. Bir umr  
jahannamga aylantirgan ekansiz, jannatni kutishingizning o'zi ah-  
moqlik bo'lsa kerak.

Hech kim bir insonning orzularini barbod qilib, o'zining  
orzulari ushalishini kutmasin. Poydevorning tagidan suv o'tgan  
bo'lsa, u yiqilganidek, hech kimning qilgan ishi jazosiz qolib ket-  
maydi. Ba'zan buni ko'rishga imkonimiz bo'la turib, ba'zida shun-  
day baxtli bo'lamizki, birdaniga bizni yarim yolda tashlab ketgan  
insonlarning yo'llarini poylamaymiz.

Shunchaki ichingizdag'i umidingizni yo'qotmang. Hayo-  
tingiz sevgi nima ekanligini tushunmaydigan insonlarni sizga  
taqdim etgani uchun sevgidan nafratlanmang.



*Hayot chiday olmasligimga amin bo'lgan narsam-ni boshimga solgach, inson barchasiga chidashini anglab yetdim.*

*Inson chorasiz qolgach, izlagan chorasi o'zida ekanligini ko'ra boshlar ekan.*

*Qaysi hodisa tusayli "Men bunga qänday qilib chidayman?" – degan bo'lsam, barchasini bir o'zim yengib o'tdim. Boshqalarga ishonch bildirishim biroz qiyin bo'lib qolgani shundandir.*

*Jarohatlangan joylarimni o'zim davoladim.*

*Charchagan, to'kilib qolgan bir hikoya shu yerda tugadi. Har hikoya baxtli yakunlanmas ekan: ba'zan shahzodalar o'z malikalarini kutmay masxaraboz-larning yoniga ketishar ekan.*

*Meni bir necha dardimning yanada go'zallashtir-ganini ko'rdim. Endi sizga qarab shuni ko'ryapman-ki, sizda ko'rish mumkin bo'lgan, qo'lga ilinadigan biron-bir yaxshi xislat yo'q ekan; sizni faqatgina men go'zal deb tasavvur qilibman, sizning borlig'ingizga faqat men ma'no beribman. Qizig'i shundaki, men bergen ta'riflarning hech biri sizga to'g'ri kelmas ekan.*

*Ruhi arqonga o'rgangan insonga bo'yinbog' taqil-mas ekan.*

*Har insonni ham odam deb bo'lmas ekan, odam bo'lmanalar o'zidan ketar ekan.*

Dunyo bir kuni tugaydigan ro'yo olami ekan, nima uchun bu qadar nafratlanasiz? Nima uchun bir qalbni sevish imkonи bo'la turib ranjitasiz? Sizni qadrlaydigan va sizni sevishidan amin bo'lgan barcha yaqinlaringizni yo'qotdingiz. Axir, bir nimalardan amin bo'lish insonni charchatib qo'yadi.

"Xato qilmaydi", – deb ishongan insonlarimizning xatolari dan o'zimiz uyalib qoldik. Ko'zlarimizning ichi kulib turib, boshqalarga aytib bergan insonlarimizni ko'zda yosh bilan esladik. Zamonga o'girilib qarang: hech kim baxtli emas, kimning qo'li kimning cho'ntagidaligi ham noma'lum. Har kim o'z dunyosini go'zallashtirish dardida. O'z dunyosi yo'lida boshqalarning hayollarini chirkinlashtirish, qalblariga loy chaplash dardida... Qalbingiz loydan iborat bo'lsa, dunyongiz go'zal bo'lmaydi, axir.

Oh-vohlar ustiga qurilgan hech qanday baxt mustahkam bo'lmaydi.

Ammo qadrlashga arzimaydigan insonlar uchun harakat qilib, natijada tanlovimizdan afsuslanish bizga shuni o'rgatdi: duch kelgan inson uchun xayol qurib bo'lmaydi. Duch kelganga ortiqcha ahamiyat bermaslik kerak. "Men ko'pchilikka yaxshilik qildim, shuning uchun menga yomonlik qilishmaydi", – deb ham o'ylamaslik kerak ekan.

Unutolmadim.

Juda ham ko'p harakat qildim, hatto sizni unutsam-da, meni qanday otash ichida tashlab ketganingizni unutishga qancha intil-sam-da, unutolmadim.

Inson biron insonning qalbini og'ritsa, uni hech qachon unutmas ekan. Dunyo ko'zingizga tor bo'lib ko'rinishni boshlagan-da, baxtingiz bo'g'zingizga ustara kabi tiqilganida meni eslaysiz.

Qalbimdag'i shunchalar ko'p umidsizlik bilan hali-hanuz ruhiy xasta bo'lib qolmaganimni mo'jiza deb bilaman. Qalbim qanotlariga bu yuklar og'irlik qilmoqda. Yo'q joydan birdaniga keluvchi yig'ini to'xtata olmayapman.

Qanchalik istasam-da, sizni unutolmayman.

Ruhimni, qalbimni ikki tosh orasiga qo'yib ezganingizni qanday unutay?

Hayot sizni ham shafqatsiz insonlar qo'liga tushirsin. Balki, o'shanda bulutlardan qulash, kechalari choraszlarcha xotiralar og'ushida qolish nima ekanligini anglarsiz.

O'shanda menga his qildirgan azoblarining tushunib yeting. Chorasi qolgan qo'llaringiz qalbingizni joyidan sug'urib olgisi ke-lib qoladi.

Qayg'u ichidan qolgan,adolatsizlikka uchragan har oningizda xayolingizga kelaman.

Aynan o'shanda bundan keyin faqatgina xayolingizgagina kelishim mumkinligini anglab yetasiz.

Chunki men endi o'limtik hidi kelib turgan tuyg'ularingiz-ga boshqa duch kelmayman.

Bir insonga hech qachon sevilmaslik anglatadigan darajada yomon insonlarsiz. Barcha tuyg'ularini o'ldiradigan darajada his-siz va yomonsizlar.

Yuragi tosh bo'lib ketgan insondan marhamat kutish eng og'ir sinovdir. Sizni barchadan ko'ra ko'proq seuvuchi insonlarni sev-gisizlik tubiga itarib yuborib, jahannamning tubiga ketayotgandek ketdingiz.

Yarim yo'lda tashlab ketgan insonlaringiz kun kelib yo'llari-  
ngizga gullar sochishini kutadiganday o'zingizga ishonyapsiz.

Sevilishiga bo'lgan ishonch insonni nonko'r qilib qo'yar ekan.  
Bir insonni baxtdan umidini uzdiradigan darajada xudbin  
insonsiz.

Ko'p emas, uzog'i bilan 10 yildan so'ng bu dunyoda ishq degan tuyg'u qolmaydi. Insonlar doimo bir-birlarining umidsiz ishonch-lari bilan band bo'lib yurishadi. Yagona insonni tanlab, yagona in-songa oid bo'lish tuyg'usi qolmagach barcha baxtsiz bo'lib qoladi. Har kim bir boshqa insonning dardini o'zining chirkin qalbida tashib yuradi. Sezen Aksu aytganidek: "Hech kim begunoh emas".

Har nimani tugatish juda ham oson. Siz esa harakat qiling. Sevilishingizdan amin bo'lsangiz, harakat qiling. Ammo amin bo'lmasangiz, faqatgina o'zingiz sevayotganingiz uchun munosabatlaringiz davom etayotgan bo'lsa, munosabatlarni tugating. Munosabatlarga qanchalik ko'p berilib ketsangiz, oxirida ayriliq ham shunchalik azobli bo'ladi...

Sevgingizdan foydalanishlariga izn bermang. Mahzun bo'lsangiz, buni unga ham his qildiring. Shunday his ettiringki, o'rtangizdagi munosabatlar tufayli yuz bergen kichik xatolar kat-talashib ketmasin.

Qarshingizdag'i insonning harakat qilib ko'rishiga izn bering. Siz uchun harakat qilishidan shubhangiz bor bo'lsa, demak, uning sevgisidan ham shubhalanayotgan bo'lasiz. Sevgisidan amin bo'limgan insonlarning yonida turib qolmang. Bir kun kejib birdaniga sizni tark etishadi.

Har bir so'zdan shafqat izlamang. Avval sevgisiga ishontirib, keyin birdaniga ketib qolgan bo'lsa, yana qaytishini kutmang. Chunki ketib qolgan, munosabatlarni uzgan u bo'lsa-yu, kechalari bilan yig'lab chiqquvchi esa siz bo'lasiz. U nima uchun qaytishi kerak o'zi?

Jarohat olgan joyingizdan malham izlamang.

**Jarohat olgan joyningizdan hamda**  
Kimningdir hayotida bazo'r turgan bo'lsangiz, u hayotdan  
uzoqlashing. Bu, balki, nafas olib chiqarishdek oson bo'lmasligi  
mumkin, ammo agar shuni eplay olsangiz, avvalo, siz o'z qadri-  
ngizni bilishni boshlaysiz, vaqt o'tishi bilan esa qadringizni yu-  
saltirib borasiz.

Bu dunyoga baxtli bo'lishga haqli bo'lмаган инсонларни доимо қадрлаб, о'зингизни қадрсиз ҳисеттirish учун келмагансиз.

Zamon bilan hamnafas bo'lar ekansiz, vaqtning har qanday dardga davo ekanini anglaysiz. Azoblanayotgan inson azobining hech qachon tugamasligi haqida o'ylar ekan. Xuddi baxt osmonida uchib yurgan bir paytda, qachondir yerga qulab chilparchin bo'lishini xayoliga ham keltirmagani kabi.

Xato tushunchalar aynan shu nuqtada boshlanadi. Bir insonning sevgisiga, ishonchiga amin bo'sangiz-u, lekin u xiyonat qilsa, o'zingizni mingta joyidan pichoqlangandek his qilar ekansiz.

Azoblardan qo'rqma

Shunday paytlarda insonning orttirgan tajribasi kelajakdagi hodisalarga tog'ri baho berishida yordam beradi.

Albatta, har inson va har narsadan shubhalanishni tavsiya qilmayman, ammo har qaysi insonning bir kun kelib har nima qilishi mumkinligini ham yodingizdan chiqarmang. Shunday bir davrda yashashimizga tog'ri kelyapti, nima ham qila olardik?

Doimo alamlar yukini ko'tarib, g'am-qayg'uga botib, yig'layot-gan ekansiz, u insonga nisbatan juda ham nekbin tuyg'ularingiz o'zingizga nisbatan eng kattaadolatsizlikdir.

Insonlar o'zlarini tasvirlab bergenlaridek emaslar, aslida. Yo'lning boshida barcha yaxshidek ko'rinda, chunki qarshisidagi insonni ta'sirlantirish, o'zlar haqida go'zal taassurot qoldirish uchun o'zlarini boshqacha inson qilib ko'rsatishadi.

Shuning uchun dastlabki yaxshi fazilatlardan ke-lib chiqib: "Aslida, u juda ham yaxshi inson" – deb, qilayotgan yomonliklariga ko'z yummang. Oz-moz bo'lsa-da, haqiqatgo'y bo'ling. Do'stingiz, sevgilingiz – kim bo'lishidan qat'iy nazar – sizga nisbatan qil-gan yanglish muomalasida sizni ayblayotgan bo'lsa, sizni yo'qotib qo'yishdan qo'rqlmayotgan bo'ladi. Bir marotaba xato qilgan inson yana bir marotaba o'sha xatosini takrorlaydi .

Faqatgina ba'zi hodisalarini boshimizdan ke-chirishimiz, ba'zi insonlarning asl yuzlarini tanib olishimiz kerak ekan: ularga kechirganligingiz va taniganligingizni bildirib baho bering. Hech kimni hayotingizning qahramoni hisoblamang, har kim o'z hayotining qahramonidir.

Hech kim hayotingizga bekordan bekorga kirmaydi.

Balki, hech qachon unutilmaydigan kechinmalar ni boshingizdan o'tkazgandirsiz, ruhingiz otashda yongandir. O'sha payt qiyin bo'lsa-da, lekin bir kun kelib otash ichidan chiqasiz, u otash sizning ruhi-nizni chiniqtiradi.

Kim hayotingizda qolishni istamayotgan bo'lsa, barchasi bi-lan xayrlashing; ketaverishsin.

Ularni hayotingizda olib qolish uchun kurashsangiz ham, ular, baribir, bir yo'lini qilib ketib qolishadi. Agar majburlab olib qolishga harakat qilsangiz, keyinchalik hech qachon esingizdan chiqmaydigan kechinmalar, xiyonatlarga duch kelasiz. Qarshingizdag'i inson sizdan ko'nglini uzgani tufayli o'zi qilgan ishni xiyonat ekanligini bilmaydi ham. Vijdonsizlarning o'z ishlaridan qachondir afsuslanishlarini ham kutmang.

Hayot sizniki. Arzimas insonlarga hayotingizning bosh rolini berib qo'ysangiz, o'zingiz istagan hayotni yasholmaysiz. Avvalo, o'zingizga, so'ngra hayotingizga begona bo'lib qolasiz.

Hech kimga qalbingizda yara bo'lib qolishiga izn bermang.

Qalbingizda Allohga tobelikning huzuri bo'lsin. Alloh bandasi uchun har doim eng yaxshi narsani hozirlab qo'ymaydimi? Chorasiz qolganingizda Allohdan panoh izlang, ko'rasiz: ko'nglingiz xotirjam bo'ladi.

Sizni tark etganlarni siz ham tark eting endi.



ISHQ KO'CHALARIDAN O'TMAGAN QALBDAN  
MUHABBAT KUTISH QANCHALAR ACHINARLI...  
ISHQNING ILK YARASI - TABASSUMNING  
ILK YAMOG'IDIR. HAYOTNING BU BIRINCHI YARASI,  
ALBATTA, TUZALADI. TUZALSA-DA,  
IZI QOLADI - TUZALMASA, AZOBI QOLADI.  
SHU SABABLI BIRINCHI MAROTABA HIS QILINGAN  
TUYG'ULARNING AZOBI, XIYONATI,  
BAXTI LABLARIMIZDAGI TABASSUM  
KABI UNUTILMAYDI.

"Siz bilan, baribir, birga bo'lolmasligimizni tushunib yetdim.  
Yaxshiyamki, ketibsiz.

Siz bilan bo'lganimda doimo jarohat bilan yurardim. Qiyn  
bo'lsa-da, sizdan voz kechdim. Siz bilan o'tgan umrimga afsusla-  
naman.

Xuddi qalbimni eritib, bir bo'shliqqa oqizib yuborganga  
o'xshaysiz.

O'zimni tiklab olishim juda ham qiyin bo'ldi. Hali-hanuz  
to'liq tiklanib olganmanmi-yo'qmi – amin emasman.

Majburan singdirilgan tuyg'ular bilan qadam tashlab bo'lmas  
ekan.

Sira qayg'u chekmay, xotirjamlik bilan vidolashgan insonni  
eng kam harakat qilgan inson, deb hisoblayman.

Yo'qsa har bir qalbni bir o'lim mahzun qilgan bo'lar edi.

Men shundoq ham sizning bo'lmag'ur qalbingizga chiday  
olmasdim. Meni ezib yuborgan bu tuyg'uni tark etyapman. Yu-  
ragimga sig'magan sog'inch hissini ham shu yerda qoldirib  
ketyapman.

Bu mag'lubiyat emas, bu voz kechishdir".

Xafa bo'lmasligi uchun qancha ko'p harakat qilsangiz, o'zingiz shuncha ko'p xafa qilinasiz. Ba'zan mayda narsalarga e'tibor berib yurish to'g'ri ish emas. Yaxshilab o'ylang. Qanchalik ko'p e'tibor ko'rayotgan bo'lsangiz, siz ham shunchalik ko'p e'tibor ko'rsating. Siz tomon bir qadam tashlagan insonga o'n qadam yaqinlashmang, bil'aks kerak bo'lsa ortga bir qadam tashlang. Aytishganidek, qochayotgan inson, baribir, quviladi.

Yaxshilab o'ylab ko'raylik, hech kimga yanglish munosabatda bo'lmaylik, biz xafa bo'lgan paytimizda suratlarimizga tikilib qolmasliklari uchun tuyg'ularimizni to'xtatib turdik. Xo'sh, natijada nima bo'ldi? Hech nima.

Xo'sh, nima uchun shunday bo'ladi? E'tibor ko'rsatgan insonlarimiz nima uchun o'zgarib qolishadi? Jonimizni ham berishga tayyor bo'lgan insonlarimiz nima sababdan barcha aybni bizga ag'darib, bizni aybdordek ko'rsatishga intilishadi bilasizmi? Chunki ularga juda ham samimiy munosabatda bo'lamiz. Ular yuziga solinmaydigan har bir qusurini o'zları uchun ustunlik hisoblashadi.

Ba'zi narsalarni majburlab qildirib bo'lmaydi. Xuddi qalbi loyga botgan qalblardan jannat izlab bo'lmaganidek.

Barcha qiyinchiliklari bir o'zi yengib o'tib, barcha narsani o'zi hal qiluvchi, hech kimni qiynamaydigan, onalik tuyg'usi bilan himoya qilib, qo'llab-quvvatlovchi ayollar bor.

Chorasizlik onida sochlarini qirqib tashlamaganligi hali-hanuz umidini uzmaganligidan darak beradi. Aslida, bir ayolga bitta qiyinchilik ham yetarli.

Osmonni tig' bilan ikkiga bo'lib, Yer yuzini poklagan juda ham kuchli ayollar o'tgan.

Bir ayol osonlik bilan taslim bo'lmaydi.

Vayronalar orasidan chiqib, turgan yerini gullatadi...

*Uning men tomonga, hech bo'lmasa, bir qadam tashlamay,  
boshqasi tomon yugurganini ko'rdim. Bunga guvoh bo'lish,  
javobsiz sevgidan-da yomonroq. Buning izohi yo'q.  
Yig'lasam, balki, o'tib ketardi, ammo men hozir hatto  
yig'lolmaydigan ahvolga kelib qolganman.*

*Lablarimni tishlarim orasida ezg'ilab, bir azob bilan  
ruhimning azobini to'xtatishga intildim.*

*Kechalarim kunduzlarga ulanib o'tganini va ichimdag'i  
o'lish istagi haqida-ku gapirmay qo'ya qolay.*

*Qanchalar og'ir, shunday emasmi?*

*Ichimizda bir inson o'lar ekan,  
o'zimiz ham o'lishni istash....*

Siz ko'nglimdan chiqib ketdingiz.

Meni rosa ezingiz, jonioymi yondirdingiz, ammo chiqib ketdingiz. Menden voz kechmasligingizga amin edim, hatto bir muddat o'zim ham o'zimdan voz kechdim, o'zimni qayta kashf etdim. Balki, endi hozirgi qiyofam eskisiga o'xshamas, ba'zi xislatlarim yetishmayotgan bo'lishi mumkin. Lekin unutmaslik kerakki, vayrona o'rnila barpo etilgan yangi bino eskisi kabi bo'lmaydi. Qaytadan vayron bo'lmasisligi uchun turli choralar ko'rildi. Tuyg'ularga yanada ko'proq kuch qo'shiladi.

Siz menden voz kechdingiz. Kuchli shamol bo'ldi, hatto bo'ron desa ham bo'ladi. Chayqaldim, yiqildim, tuyg'ularim qonadi.

Ammo yaramni o'zim bog'ladim. Ha, bir o'zim.

Bilaman, yaramni boshqa bir inson bog'lasa, yanada ko'proc qonatar edi.

Go'yoki qalbimda sigareta o'chirilgan-u, lekin qalbimdagi olov hissini bir muddat xayolimdan chiqarolmagandek his qilyapman.

Xayolimdan o'chirib tashlashni istagan qancha-qancha tuyg'ular bo'ldi... Hatto xotiramni yo'qotishni istab qoldim.

Bir uchqun chiqsa, tilimdagi jumlalarim yonardi.

"Ketgan insonga qiyinroqmi, qolgangami?"  
- deb so'rashardi doimo. Sevganga qiyin. Sevgani ketar ekan, insonning joni hech yonmasmi?.. Butun umidlarni yoqib yuborish, to'g'rirog'i, inson o'zidagi so'nggi umidining ham o'g'irlanishidan qalbi aziyat chekmaydimi?

Azoblanish bir qultum suv ichish kabi oson narsa emaski, ichsangiz-u, ichingizga oqib ketsa-yu, unutilsa... Bil'aks bu tuyg'u insonning qalbida qoladi. Darrov o'tib ketmaydi. Baxt sharobidan tinmay ichsangiz ham, u ko'z yoshingizga to'siq bo'la olmaydi.

Insonlarning yomon xislatlariga ko'nikkanimda hech nima qilib bo'lmasligiga amin bo'lib, ichimga yutgan bo'lardim.

"Bu yomonlarning orasidagi yaxshisi", - deya olganimda vaqt o'tib o'zim ham yomon insonga aylanardim. Chunki qora rang qalbda qora dog' qoldiradi va vaqt o'tib sizni butunlay egallab oladi.

Yaxshi inson bo'lish kerak. Zamonga, insonlarga qasdma-qasd emas, balki baxtli bo'lish uchun ham yaxshi inson bo'lish kerak.

Chunki Alloh doimo yaxshi insonlar uchun go'zal xotima tayyorlab qo'ygan bo'ladi. Yaxshi inson qiyin kunlarini boshidan kechirib bo'lgach, qarshisidan go'zal, gullarga to'la bir yo'l chiqadi...

Yiqilmasligimga amin edim, yiqildim. O'rnimdan turolmasligimga ham amin edi, ammo turdim. Balki, birdaniga yuguolmagandirman, ammo o'rnimdan turishim bilan yurib ketdim.

Insonlarning yomon tomonlarini ko'nika olmadim, shu tufayli yolg'izlikka ko'nikdim.

Dardga gap kor qilmaydi,  
aziz sevgilim. Hayotni dard bilan  
o'rgana olasiz. Hech qachon azob  
chekmagan inson bo'lish  
omad nishonasi emas.

Dard insonga hayotning bir kun  
yakuniga yetishini, bu dunyo hayoti  
foniy ekanligini ko'rsatib qo'yadi.

Dard, kechaning yarmida  
qalbingizga sanchilib,  
uyquning eng shirin paytida  
o'zini eslatib qo'yadi.

"Bu dardlar hech qachon  
tugamaydi", – deb o'ylagan  
vaqtningizda dardlarning  
tugash nishonasi  
o'zini ko'rsatadi.

Men barchani kechirdim. Kim nima qilgan bo'lsa ham, bari-  
bir, kechirdim. Ba'zi insonlardan qilgan ishlari uchun hisob ham  
so'ralmaydi. Hisob so'rashni bilishganda edi, birovga nisbatan  
adolatsizlik qilmagan bo'lishar edi.

Ular mening hayotimdan chiqib ketib, o'z hayotidan quvonib,  
xursand bo'lisharkan, men baxtsiz qiyofada ularga nisbatan nafra-  
tim bilan yashay olmasdim, ustiga-ustak, ularning hayotimga  
qaytadan aralashishlariga izn berolmasdim.

Hayotimdan chiqib ketgan har kimsaga oq yo'l tilayman.  
"Men o'z yo'llimni tanlab oldim, bundan keyin boshqa uchun o'z  
yo'llimdan ortga qaytmayman. Yonimga kelishni istagan men bi-  
lan birga yo'lga chiqadi, charchagan ortga qaytadi, shunda yarim  
yo'lda qolib ketmayman", – dedim o'zimga o'zim.

Qo'ying, ketgan ortga qaytmasin. Yurangizga og'ir zarba  
tushirgan inson qaytib kelsa, baxtli bo'lishingiz mumkinligini  
o'layapsizmi?

Hayotingizdan chiqib ketgan insonning qaytib kelmasligini,  
kelganda ham, avvalgi tuyg'ular bo'lmasligini tan oling. O'zingiz-  
ga yangi bir yo'l kashf eting. Nimalarni boshingizdan o'tkazgani-  
ngizni va insonlarning nima maqsad bilan hayotingizga kirib  
chiqqanlarini siz bilolmaysiz-ku. Balki, bularning bari sizni go'zal  
kelajak uchun tayyorlab borayotgandir.

Siz qo'lingizdan kelgan ishni qildingiz. Natijasi yaxshi bo'lma-  
gan bo'lsa: "Allohnning bir bilgani bordir", – deyishingiz Allohga  
qilingan eng go'zal tobelikdir.

Kaktuslar ham gullaydi...

Bu gul, darhaqiqat, sevishni biladiganlar uchun naqadar go'zal gul. Na sovuq, na issiq ta'sir qiladi. Yomg'ir yog'ganida suv to'playdi. To'plagan suvi bilan, eng qurg'oqchil joylarda ham yillar bo'yи hayotda qoladi, so'lmaydi. Bu insonning ichida saqlab yuradigan umidiga o'xshaydi. Nima yuz bergen taqdirda ham, bir nimalarnidir umid qilib, kutish insonning tabiatida bor.

Bu gul uch yuz yilgacha yashay oladi. Tikanlarini kesib tashlasangiz, yanada o'tkirroq bo'lib chiqadi. Xuddi shu kabi hayotning qiyinchiliklari ham sizni kuchli qilish uchun yuboriladi. Hech bir tushkunlik boshingizga bekorga tushmaydi. Inson he yo'q-be yo'q azoblanadimi?.. Yo'q, bekorga azoblanmaydi. O'zingizga saboq chiqaring, qalbingiz bilan kelishishing.

Kaktusning bir yilda bir marotaba gullaydigan turlari ham bor. Bir kaktus olib o'stiring, sizga yo'ldoshlik qilsin. Qachon, qanday gul ochishini sabr bilan kuting. Balki, siz bundan baxtiyorlik his qilarsiz. Balki, ichingizda unutgan umidingizni poklar. Inson nimalargadir ishonishi va kutishi lozim. Qurigan tomoningizni gul bilan berkiting.

Kaktus eng og'ir sharoitlarda ham yashab qola oladi. Xuddi o'nlab dardimiz bo'lishiga qaramay, kula olayotganimiz kabi... Tikanlari esa boshqa bir insonning joniga ozor berish uchun emas, o'zining hayotini himoya qilish uchun mavjud. Bu unga to'plagan suvlarining bug'lanib ketmasligini ta'minlaydi. Ya'ni hayot manbaini, o'zini himoya qiladi. Shuningdek, tikanlari yordamida yovvoyi gullarini va hayot manbaini yirtqichlardan himoyalaydi. Bu bizning tajribalarimizga o'xshaydi. Azob chekmagan bo'lsangiz, hech qachon yomon insonlar bilan yuzma-yuz kelmagan bo'lsangiz, hayotning haqiqatlarini ko'rolmay qolasiz. Olgan tajribalaringiz tufayli o'zingizni necha marotaba himoya qilganingizni bir o'ylab ko'ring.

Anglab yetishingiz kerak bo'lgani shuki, ba'zan hayot ko'rganingiz kabi bo'lavermaydi. Bu qadar ko'p mahzunliklar orasida, albatta, go'zalliklar ham bo'ladi.

Kaktuslarning tikanlari borligi ularning gullamasligini bildirmaydi. Bu gaplarim bilan bir yilda bir marotaba va bir kun yashaydigan o'sha gulning ochilishiga ketadigan vaqt haqida eslatmoqchiman, xolos. Siz ichingizdagি buyuk bir umid bilan yashayapsiz. Bir yilda bir marotaba emas, istaganingizcha gullay oladigan kuchga egasiz. Xohlasangiz, o'zingizdan voz kechmasangiz bo'ldi.

Kaktuslar menga kamtar insonlarni eslatadi. Ya'ni alohida etibor berishingizga muhtoj emas, har kuni sug'orishingiz shart emas, uyning bir burchagida unutilsa ham, baribir, so'lib qolmaydi.

Kaktuslar o'ziga xosdir, xuddi siz kabi.

U sabr-toqatni, himoyalanish hissiyotini, kuchli bo'lishni va taslim bo'lmaslikni o'rgatadi.

MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY OLGAN  
KITOBLAR

## SONGUL UNSAL

# AKKTUSLAR HAM GULLAYDI

**Tarjimonlar:**

Ulug'bek JANGCHIDDINOV

Risolat IBRAGIMOVA

**Bosh muharrir:**

Abduqodir YULDASHEV

**Nashrga tayyorlovchi:**

Begzod IBRAGIMOV

**Musahhih:**

Abdurazzoq O'KTAMOV

**Kompyuterda sahifalovchi:**

Abduqodir YULDASHEV

*"Zukko kitobxon" nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning "Olimpos" nashriyoti bilan "Akdem Telif Haklari ve Tercüme" agentligi vositachiligidida 2022-yıl 3-yanvarda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Shuning uchun ushbu kitobni o'zbek tilida chop etish huquqi faqat "Zukko kitobxon" nashriyotiga tegishli. Boshqa nashriyotlar yoki shaxslarning ushbu kitobni yoki uning bir qismmini gazeta va jurnallarda chop etishi, elektron ko'rinishida tarqatishi, internetga joylashtirishi qat'yan taqiqlanadi.*

**Mualliflik huquqini hurmat qiling!**

*Agar kitobning oldi muqovasida qalabakilashtirishdan himoyalovchi vosita gologramma bo'lmasa, demak, bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo'ng'iroq qiltshingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo'lamiz va sizga kitob sovg'a qilamiz.*

Bosishga 11.03.2022 yilda ruxsat etildi.

Bichimi – 84x108 1/32. Bosma tabog'i – 5. Garniture – "Minion Pro".

Qog'oz offset bosma. Adadi 2000 nusxa.

Buyurtma raqami № 7. Bahosi kelishilgan narxda.

"GOLD PRINT PRESS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shaxri, Uchtepa tumani, 11-mavze, 43-uy.

# *Kaktuslar ham Gullaydi*

*Bu foniy dunyodagi ba'zi odamlar menga choh  
qazishgan bo 'lsa-da, o 'sha chohdan o 'zgarib  
chiqdim – yanada kuchliroq bo 'ldim!*

*O 'zimni yo 'qotgan bu yo 'llarda bir qancha  
vaqt hech narsani his qilmay yurdim.*

*Lekin o 'rgandim: inson o 'zi yurgan yo 'llarga  
gullar ekib olg 'a intilishi kerak ekan.*

*Agar u yarim yo 'lda qolsa-yu, orqaga qaytadigan bo 'lsa,  
o 'sha yo 'llar gullar bilan bezatilgan bo 'lishi kerak ekan.*

*Hattoki kaktuslar ham gullashi mumkin bo 'lgan bu  
dunyodagi ba'zi bir odamlarning qalbi allaqachon so 'lib,  
qurib qolgan.*

*"G 'am-alam, tashvishlar ustma-ust kelib, chiday olmaydigan  
holga tushib qolsangiz ham, taslim bo 'lmang!*

*Ana shundagina taqdiringiz o 'zgaradi!"*

*Mavlono (Jaloliddin Rumiy)*



**BOOK PRESS**



ISBN 978-9943-8021-8-6



9 789943 802186



E'tiboringiz uchun  
tashakkur) Kitob  
haqidagi fikrlaringizni  
@Khanifa\_blog kanalida  
kutib qolamiz!

@Miss-khanifa